

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
PEDAGOGIKA FAKULTETI**

**OLIIY TA'LIMDA UMUM KASBIY FANLARNI O'QITISHDA
MODULLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH**

(Pedagogika nazariyasi va amaliyoti fani misolida)

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi: “Boshlang'ich sinf va sport
tarbiyaviy ish” ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi 4
kurs talabasi **Abdurayimov F.**

Ilmiy rahbar: “Umumiy pedagogika” kafedrası
o'qituvchisi X.A.Norpo'latova _____

TERMIZ – 2013

R E J A

Kirish.

1-BOB. OLIY TA'LIMDA UMUM KASBIY FANLARNI O'QITISHDA MODULLI TEXNOLOGIYALARNING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Modulli o'qitish texnologiyalarining mazmun va mohiyati.

1.2. Oliy ta'limda modulli texnologiyalardan foydalanishning shart-sharoitlari.

2-BOB. OLIY TA'LIMDA UMUM KASBIY FANLARNI O'QITISHDA MODULLI TEXNOLOGIYALARNI TASHKIL ETISH USUL, VOSITA VA SHAKLLARI

2.1. Pedagogik faoliyat yondashuvi asosida o'qitishning modulli texnologiyasining usul va shakllari.

2.2 Pedagogik texnologiya asosida "Pedagogika nazariyasi va amaliyoti" fanini o'qitishning modulli loyihalash algoritmi.

Umumiy xulosa va tavsiyalar.

Foydalanilgan adabiyotlar .

Ilovalar.

Kirish

Mavzuning dolzarbligi:

Insoniyat milodiy uchinchi ming yillik ibtidosida, kelajak hayotining turli jabhalari rejasini tuzib, uning asosiy yo'nalishlarini belgilab olmoqda. Jahonning yetakchi olimlari, yakdillik bilan, kelajakda ilm-fan va aholining ta'lim-tarbiyasi Yer yuzidagi kishilik jamiyati taraqqiyotini ta'minlovchi ustuvor yo'nalishlardan bo'lmog'i lozim demoqdalar. Chunki, jadal sur'atlar bilan taraqqiy etib borayotgan ilmiy-tehnikaviy inqilob va u bilan bog'liq bo'lgan insonning tabiatga bo'lgan ta'sirining tobora ortib borishi hamda boshqa bir qator omillar, odamlardan tabiat va uning unsurlariga, shu jumladan, insonga ilmiy nuqtai nazardan to'g'ri yondashishni talab qilmoqda.

O'zbekiston ham milliy rivojlanishining istiqbolli rejasini tuzib, uni ro'yobga chiqarishda, hal qiluvchi yo'nalishlardan biri etib, ta'lim-tarbiya sohasini belgiladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasi(1997 yil 29 avgust)da qabul qilingan hamda bugungi kunda amaliyotga keng qo'lamda tatbiq etilayotgan O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» buning yorqin dalilidir. Bugungi kunda ta'lim tizimida «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni amaliyotga tatbiq etishning uchinchi yakuniy bosqichi davom etmoqda. Mazkur jarayon 2005 va undan keyingi yillarda «...ta'lim muassasalarining resurs, kadrlar va axborot bazalarini yanada mustahkamlash, o'quv-tarbiya jarayonini yangi o'quv-uslubiy majmualar, ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan to'liq tahminlash» rejalashtirilgan. Shu kunda ta'lim-tarbiya jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan tahminlash, bajariladigan asosiy jiddiy vazifa sifatida belgilandi¹.

Ta'lim sohasida faoliyat ko'rsatayotgan O'zbekistonning ilg'or pedagog olimlari ilmiy asoslangan hamda respublikamizning ijtimoiy-pedagogik sharoitiga moslashgan ta'lim texnologiyalarini tatbiq etish yo'lida talay ishlarni

¹ Karimov I. A. "Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" - "Sharq" nash. Toshkent 1997 yil.

amalgaga oshirmoqdalar. Lekin, majmualar nazariyasiga to'raligicha suyanan hamda hududimizning ijtimoiy-pedagogik sharoitiga mos keladigan va hammaga tushunarli bo'lgan O'zbekistonning Milliy pedagogik texnologiya modeli hali yaratilmadi. Buning sababi, birinchidan, pedagogik texnologiya nazariy asoslarining ancha murakkabligi bo'lsa, ikkinchidan, pedagog olimlarimizning sinergetikaning majmualar nazariyasini to'la egallab olmaganliklaridadir. Majmualar nazariyasini to'liq bilmagan kishi, pedagogik texnologiyaning mazmun va mohiyatiga tushunib etmaydi. Chunki, pedagogik texnologiya yuz foiz ishimizda yondashuv tamoyilidan kelib chiqib, to'raligicha, uning tamoyillariga va qoidalariga bo'ysunadi. Shu kundan sinergetik dunyoqarash va uning tarkibiy qismi bo'lgan, butun borliqqa majmu sifatida yondashuv tamoyilini bilmay turib, pedagogik texnologiyani yaratib bo'lmaydi. Shuningdek, pedagogik jarayonnni majmu sifatida ko'rib chiqib, pedagogik texnologiya nazariyasida qabul qilingan tamoyillarni birma-bir izohladik. So'ngra O'zbekistonning "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"dan hamda yurtimiz pedagogik jamoatchiligining fikr-mulohazasidan kelib chiqib jahon pedagogik texnologiyalarida qabul qilingan tamoyillardan og'ishmagan holda, pedagogik amaliyotda ishlashini tekshirib ko'rish maqsadida, "Pedagogika nazariyasi va amaliyoti" fani modulini ishlab chiqdik.

Shularni inobatga olib biz o'z bitiruv malakaviy ishimizning mavzusini "Oliy ta'limda umum kasbiy fanlarni o'qitishda modulli texnologiyalardan foydalanish" deb nomladik.

Bitiruv malakaviy ishimizning maqsadi: Oliy ta'limda "Pedagogika nazariyasi va amaliyoti" fanini o'qitishda modulli texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xos shakllari va usullarini amalda qo'llash.

Bitiruv malakaviy ishimizning vazifalari:

1. Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish ta'lim yo'nalishi talabalarining "Pedagogika nazariyasi va amaliyoti" fanini o'qitishda modulli

texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-nazariy jihatdan o'rganish va tahlil qilish.

2. Oliy ta'limda modulli texnologiyalardan foydalanishning shart-sharoitlarini o'rganib chiqish.

3. "Pedagogika nazariyasi va amaliyoti" fanining modulli texnologiyalar asosida loyihalash algoritmini ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishimizning o'rganilganlik darajasi:

O'qitishning modul tizimi haqida rasmiy ravishda birinchi marta, 1972 yil, YUNESKOning Tokiodagi Butunjaxon Konferentsiyasida so'z yuritilgan edi. Modulli texnologiyalar tadbiq qilish muammolari haqida Borodina N.V., Samoylova E.S., Bukalova G.V., Klarin M.V., Selevko G.K., Samoylova S.L., Skakun V.A., Skatkin M.N., Lerner I.Ya., Klarin M.V kabi rus olimlarining diqqat markazida bo'lib keldi.

O'zimizning vatandoshlarimiz ham modulli texnologiyalarda olib borilgan tadqiqotlarda Ashurova S.Y., Avliyoqulov N.H., Ziyomammedov B., Abdullayeva, Sh., Maxmutov M.I., Ibragimov G.I., Olimov Q.T., Sayidahmadov N., Ochilov A., Farberman B.L., Xodiyev B.Yu., Gimranova O.B., Z Choriyevlarni tadqiqot ishlarida ko'rishimiz mumkin.

Bitiruv malakaviy ishimizning predmeti: Oliy ta'limda "Pedagogika nazariyasi va amaliyoti" fanini o'qitishda modulli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy tashkiliy hamda amaliy jihatlarini tadqiq qilish jarayoni.

Bitiruv malakaviy ishimizning ob'ekti: Oliy ta'lim muassasalarining "Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish" yo'nalishlarida "Pedagogika nazariyasi va amaliyoti" fanini o'qitish jarayonida modulli texnologiyalardan foydalanish.

Bitiruv malakaviy ishimizning ilmiy farazi: Oliy ta'lim muassasalarida talabalar o'zlashtirish samaradorligi oshadi agarda:

- Oliy ta'lim muassasasi o'qituvchilari pedagogik texnologiyalarni mukammal egallagan bo'lsa;

- o'qitish jarayonida modulli texnologiyalardan samarali foydalana olsa;

Bitiruv malakaviy ishimizning yangiligi:

Oliy ta'lim muassasalari o'quvchilari uchun modulli texnologiyalarni tatbiq qilish muammolari nazariy jihatdan o'rganildi; "Pedagogika nazariyasi va amaliyoti" fanidan nazariy dars moduli ishlab chiqildi.

Bitiruv malakaviy ishimizning ilmiy va amaliy ahamiyati:

Oliy ta'limda "Pedagogika nazariyasiva amaliyoti" fanini o'qitishda sifat va samaradorligini oshirishda modulli texnologiyalar asosiy omil bo'lib xizmat qiladi;

Bundan tashqari bitiruv malakaviy ishimizda "Pedagogika nazariyasiva amaliyoti" fanining modulli texnologiya loyixasining algoritmi va ulardan ta'lim jarayonida foydalanish usullari ko'rsatildi.

Bitiruv malakaviy ishimizning metodologik asosi: O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" Qonunlari, "Davlat ta'lim standartlari", oliy ta'limi to'g'risidagi Nizomlar va mehyoriy hujjatlar, sharq mutafakkirlarining fikrlari, prezident I.A.Karimov asarlari, darsliklar, ilmiy tadqiqot ishlari bo'yicha ilmiy-uslubiy ishlar va metodikalar tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishini yozish jarayonida juda ko'p pedagog-psiholog olimlar tomonidan

Bitiruv malakaviy ishimizning metodlari: mavzuga oid adabiyotlarni tahlil qilish, kuzatish, suhbat, anketa, test-nazorat usullari, savol-javob, pedagogik tajribalar o'tkazish, to'plangan natija va dalillarni matematik-statistik jihatdan ishlash, qayta ishlash, umumlashtirish va xulosalash.

Bitiruv malakaviy ishimiz kirish, 2 bob, 4 paragraf, hulosa va foydalanilgan adabiyotlardan iborat.

BOB. Oliy ta'limda umum kasbiy fanlarni o'qitishda modulli texnologiyalarning nazariy asoslari.

I.1. Modulli o'qitish texnologiyalarining mazmun va mohiyati.

O'zbekiston Respublikasi inson huquqlari va erkinliklariga rioya etilishini, jamiyatning ma'naviy yangilanishini, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishni, jahon hamjamiyatiga qo'shilishini ta'minlaydigan demokratik huquqiy davlat va ochiq fuqarolik jamiyati ko'rmoqda.

Zamonaviy bozor iqtisodiyotining shakllanishi korxonalar orasidagi raqobat asosida, xalq xo'jaligining barcha tarmoq va zvenolarini keskin rivojlanishini taqozo etadi. Chunki bozor iqtisodiyotini raqobatsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Korxonalar orasidagi raqobat o'z navbatida, ilm-fan, texnika texnologiyaning yangi ilmiy texnik taraqqiyotining jadallashuviga olib keladi. Shuning uchun ham bizning davlatimizda «Ta'lim to'g'risidagi» va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» Qonunlari qabul qilindi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining maqsadi ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tishdan olgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xolos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdir. Rivojlangan demokratik davlatlar darajasidagi oliy ma'lumotli yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, quyidagi shartlar asosida amalga oshirish lozim:

Birinchidan - ilmiy texnik taraqqiyotining hozirgi zamon holati ilm-fanning yuksalib borayotgan roli bilan belgilanadi. XX asrda ayniqsa uning ikkinchi yarmida ilm-fanning rivojlanish tezligi o'zining eng katta sur'atlariga erishdi. Oxirgi har 10-15 yil ichida ilmiy faoliyatning asosiy ko'rsatgichlari ikki marotaba oshib bormoqda.

Ilm-fan rivojining jadallashuvi va ilmiy-texnikaviy informatsiyaning jadal o'sishiga va tez-tez yangilanishiga olib keladi. Ilm-fan rivojining eksponenta

qonuni bo'yicha rivoji uning ko'chkisimon o'sishini anglatadi. Demak, ilmiy-texnikaviy informatsiyaning o'sishi ham, ko'chkisimon hisoblanadi. Jahonda har yili minglab kitoblar, jurnallar chop etiladi va uni minglab dissertatsiyalar himoya qilinadi.

Informatsiyaning yuksalib borayotgan ko'chkisimon oqimi tezligini ta'minlash maqsadida zamonaviy telekommunikatsiyali informatsion tizimlar qo'llanilmoqda.

Ilm-fan rivoji, bu oliy ma'lumotli mutaxasislarning faoliyat doirasidir. Shuning uchun oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlash tizimi, ularning o'ta iqtidorlilariga zamonaviy informatsiya oqimini o'zlashtirishga, ilmiy tekshirish faoliyati individual va mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga ilmiy-texnikaviy informatsiya va o'quv ilmiy adabiyot bilan ijodiy ishlay olishga imkoniyat berishi lozim.

Ikkinchidan-hozirgi zamon fanining ko'chkisimon rivoji ikki, uch va undan ortiq fanlari ulanishlarida yangi turdagi fanlar paydo bo'lishi bilan ham ta'minlanadi. Masalan: geofizika, biogeokimyo, informatika, fizikokimyoviy mexanika va hokazo. Fan darahiti hosil bo'ladi. Ma'lum fanlar ulanishlarida tug'ilgan yangi fan – bu yangi yo'nalishlar, muammolar, mavzular va ilmiy masalalar demakdir. Bu masalalarni oliy maktabning iste'dodli bitiruvchilari hal etishi lozim.

Shuning uchun kadrlar tayyorlashni zamonaviy tizimi, ularda o'ziga xos va nostandart fikrlash qobiliyatini o'stirishi, o'z ustida doimiy ravishda chidam va matonat bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishi lozim.

Uchinchidan – ilm-fan rivojining ko'chkisimon rivoji va ilmiy texnikaviy informatsiyaning shunga o'xshash o'sishi, informatsiyaning uzatish va qayta ishlash tezligini oshishiga olib keladi, buning asosida esa hisoblash texnikasi yotadi. Ta'limni individuallashtirilmasdan, zamonaviy informatsion tizimlardan foydalanishni ko'z oldiga keltirish mumkin emas. Shuning uchun oliy maktab

oldiga kadrlar tayyorlash Milliy dasturiga ko'rsatilganidek - «O'qishni, mustaqil bilim olishni individuallashtirish hamda masofali ta'lim tizimi texnologiyasi va vositalarni ishlab chiqish va o'zlashtirish» vazifasi qo'yilgan.

To'rtinchidan – ilmiy texnik taraqqiyotining xususiyati muxandislik yechimlar turini keskin oshishi, materiallarning tezda almashinuvi, texnologik jarayonlar mashinalar konstruktsiya, boshqarish tizimlarining avtomatlashtirish darajasining oshishi, ilmiy yutuqlar natijasini ishlab chiqarishga tadbqiq etish muddatlarini kamayishi hisoblanadi.

Beshinchidan-oliy maktabda jadallashayotgan ilmiy texnik taraqqiyotining ortib boradigan talablariga to'la javob beradigan mutaxassislarni tayyorlash uchun o'qitishni jadallashtirish, inson organizmini butun imkoniyatini, uning ongini o'qitishda ishga solish zarur. Yangi simvolli ko'rsatuvli o'qitishni jadallashtirish zarur. Bu esa o'quv jarayonida informatsiya berilayotganida, o'quv materialini strukturalash va tizimga solish, o'qitishni kompg'yuterlash o'quv televideniesidan foydalanish taqozo etadi.

Oltinchidan – har qaysi odam tug'ilgandan boshlab alohida individium hisoblanadi, yahni har kimning o'ziga hos aqliy kurtaklari, ta'lim olishga qobiliyati bo'ladi. Bundan kelib chiqqan holda, zamonaviy o'qitish tizimining vazifasi insonning individual qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilmog'i lozim.

Oliy maktab oldida turgan masalalarni muvaffaqiyatli hal etishga yordam beradigan, zamonaviy talablarga ko'proq moslashgan kadrlar tayyorlashining modul tizimidir. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" da bunga alohida e'tibor qaratilgan, undan ta'kidlanganidek «Yangi pedagogik va axborot texnologiyalari, tayyorgarlikning modul tizimidan foydalangan holda talabalarni o'qitishni jadallashtirish» lozim.

«Modulli o'qitish» termini xalqaro tushuncha - modul bilan bog'liq bo'lib, uning bitta ma'nosi faoliyat ko'rsata oladigan o'zaro chambarchas bog'liq elementlardan iborat bo'lgan tugunni bildiradi. Bu ma'noda u modulli

o'qitishning asosiy vositasi sifatida, tugallangan axborot bloki sifatida tushuniladi.

Modulli o'qitish-o'qitishning istiqbolli tizimlaridan biri hisoblanadi, chunki odam bosh miyasining o'zlashtirish tizimga eng yaxshi moslashgandir. Modulli o'qitish asosan inson bosh miyasi to'qimalarining modulli tashkil etilganligiga tayanadi.

Inson bosh miyasi to'qimasi, qariyb 15 mlrd. neyronlardan (nerv xujayralari) yoki apparatli modullardan iborat. To'qima xujayralari bir-biri bilan ko'p sonli to'qnashuvlarda bo'lishadi. Bir xujayra va uning o'simtasini boshqa xujayra va uning o'simtasi bilan to'qnashuvlari soni 6 mingtagacha yetib boradi. Demak, bosh miya to'qimasidagi to'qnashuvlar (kontaktlar) soni astronomik sonni ($1'000000000 \times 6000$) tashkil etadi. SHu nuqtai nazardan, modul o'quv jarayonining bir hujayrasi sifatida qaraladi. Bu xujayra bir vaqtning o'zida axboriy umumiylikka o'ziga xos yaxlitlik va tizimlilikka ega bo'lgan elementlardan tashkil topgan bo'ladi².

O'qitishning modul tizimi haqida rasmiy ravishda birinchi marta, 1972 yil, YUNESKOning Tokiodagi Butunjaxon Konferentsiyasida so'z yuritilgan edi. Modulli o'qitish texnologiyasi funktsional tizimlar, fikrlashning neyrofiziologiyasi, pedagogika va psixologiyalarning umumiy nazariyasidan kelib chiqadi.

Bu sohalardagi izlanishlarga ko'ra, to'qimasi modulli tashkil topgan inson miyasi, axborotni kvant ko'rinishda (boshqacha aytganda, ma'lum hissalar ko'rinishida) eng yaxshi jihatdan qabul qiladi.

Modulli o'qitish, kasbiy ta'limning quyidagi zamonaviy masalalarini xar tomonlama yechish imkoniyatlarini yaratadi³ :

- modul - faoliyatlik asosida o'qitish mazmunini optimallashtirish va tizimlash dasturlarini o'zgaruvchanligi, moslashuvchanligini ta'minlaydi;

² Avliyoqulov N.H. O'qitishning modulli va pedagogik texnologiyasining amaliy asoslari. Buxoro, 2000.

³ Selevko S.. «Sovremennoe obrazovatelnoe tekhnologii» M. Izd. «Narodnoe obrazovanie», 1998.

- o'qitishni individuallashtirish;
- amaliy faoliyatga o'rgatish va kuzatiladigan xarakterlarni baholash darajasida o'qitish samaradorligini nazorat qilish;
- kasbiy motivatsiya (qiziqtirish) asosida, o'qitish jarayonini faollashtirish, mustaqillik va o'qitish imkoniyatlarini to'la ro'yobga chiqarish.

Modulli o'qitishning xozirgi zamon nazariyasi va amaliyotida ikki xil yondashuvni ajratib ko'rsatish mumkin: fan bo'yicha faoliyat yondashuvi va tizimli faoliyat yondashuvi.

Bu yondashuvlar doirasida modul asosida mutaxassislar tayyorlashning bir qator kontsepsiyalari ishlab chiqilgan. Barcha kontsepsiyalar zamirida faoliyat yondashuvi yotadi va bu nuqtai nazardan, o'qitish jarayoni to'laligicha yoki muayyan fan doirasida, modulli ta'lim dasturi mazmuniga muvofiq kasbiy faoliyat elementlarini o'quvchi tomonidan ketma-ket o'zlashtirishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Turli kontsepsiyalar doirasida, modulli ta'lim dasturlari, turli xil tarkib va tarkibiy tuzilmalardan iborat bo'ladi, turli shakldagi xujjatlarda taqdim etiladi, ammo ularning barchasi quyidagi uchta asosiy tarkibiy qismni majburiy ravishda o'z ichiga oladi:

- maqsadli mazmuniy dastur;
- turli ko'rinishlarga taqdim etilgan axborotlar banki
- o'quvchilar uchun uslubiy ko'rsatmalar.

Shunday qilib, modulli o'qitish o'quv jarayonini tashkil etish shakli bo'lib, unda o'qitish o'quv materialining mantiqan tugallangan birliklari modullarni bosqichlar va qadamlar bo'yicha o'zlashtirishni anglatadi.

Modul amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari ma'ruzalar bilan birga tuzilishi, ularni ma'ruzalar mazmunini o'rganiladigan yangi material bilan to'ldirilishi kerak.

O'qitishning modul tizimi mazmunidan uning quyidagi afzalliklari aniqlandi:

- fanlar va modullar bo'yicha o'qitish uzluksizligining tahminlanishi;
- modullararo metodik jihatdan asoslangan muvofiqlik o'rnatilishi;
- fanning modulli tuzilishi tarkibining moslashuvchanligi;
- talabalarning qobiliyatiga ko'ra tabaqalanishi (dastlabki modullardan so'ng, o'qituvchi ayrim talabalarga fanni individuallashtirishni tavsiya etishi mumkin);
- axborotni «siqib» berish natijasida o'qitishni jadallashtirish, auditoriya soatlaridan samarali foydalanish va o'quv vaqti tarkibini, ma'ruzaviy, amaliy (tajribaviy) mashg'ulotlar, individual hamda mustaqil ishlar uchun ajratilgan soatlarni optimallashtirish.

Buning natijasida, talaba yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi.

O'qitishning modulli texnologiyasi o'qitishning qabul qilingan tamoyillariga muvofiq ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi kerak.

Ta'lim tamoyillarini tizimlashtirishga bo'lgan yondoshishlarda quyidagicha fikrlar bildirilgan.

M.N.Skatkin ta'lim tamoyillarini quyidagicha belgilaydi: ilmiylik, har tomonlamalik, hayot bilan aloqadorlik, tabaqalashtirish, tizimlilik, o'quv fanlari orasidagi o'zaro aloqadorlik⁴.

M.G.Ogorodnikov esa o'z tadqiqotlarida ilmiylik, g'oyaviylik, tarixiylik, tizimlilik, nazariya va amaliyotning birligi, ta'limning hayot bilan aloqasi kabilarni asosiy tamoyillar sifatida ajratadi.

S.Ya.Batishev kasbiy ta'lim mazmunini ishlab chiqarish va mehnat jarayoni rivojlanishi bilan uzviy bog'liq holda tasavvur etish kerak, deb hisoblaydi va ta'limning quyidagi tamoyillarini belgilaydi: ilmiylik, tizimlilik va joriylilik, amaliy ta'lim bilan ishlab chiqarish mehnatining birligi.

⁴ Skatkin M.N. Metodologiya i metodika pedagogicheskix issledovaniy. M.: Pedagogika, 1986. – 150 s.


V.A. Skakun kasbiy ta'lim tamoyillarini quyidagicha talqin qiladi: ilmiylik va g'oyaviylik; ta'lim va tarbiyani rivojlantirishning birligi; ilmiy-texnika taraqqiyotiga ta'limning bog'liqligi; politexnizm; malakali ishchilarni tayyorlash jihatlarning bir-biriga aloqasi; ta'limning birligi hamda tabaqalanishi.

A.P.Belyaeva ta'limda haqchillilik, ilmiylik, politexnikaviylik, tizimlilik, muqobillilik, politexnik va kasbiy ta'limning birligi hamda o'zaro aloqasi; fanlararo va majmuaviy o'zaro aloqadorlik, kasbiy safarbarlik, ta'limning egiluvchanligi hamda turg'unligi, mujassamlanganligini uning asosiy tamoyillari sifatida talqin etadi.

H.X.Avliyoqulov modulli o'qitish jarayonini faoliyatlilik, tizimli, qiziqtirish, modullilik, muammolilik, kognitiv vizuallilik, xatoliklarga tayanish tamoyillariga muvofiq ishlab chiqishi lozim, deb ta'kidlaydi⁵.

O'qitishning modulli texnologiyasi, o'qitishning qabul qilingan tamoyillariga muvofiq (2.1.-rasm) ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi.

⁵ Avliyoqulov N.X.Kasbiy fanlarni modulli o'qitish texnologiyasi. Toshkent: «Yangi asr avlodi». 2004. – 106 b.



2.1.-rasm. Modulli o'qitishning blok-sxemasi

Quyidagi tamoyillar modulli o'qitish texnologiyasining asosini tashkil etadi:

1. Faoliyatlilik tamoyili: Bu tamoyil, modullar mutaxassisning faoliyat mazmuniga muvofiq shakllanishini anglatadi.

Bu tamoyilga ko'ra modullar fan bo'yicha faoliyat yondashuv yoki tizimli faoliyat yondashuv asosida tuzilishi mumkin. Modulli o'qitish texnologiyasida fan bo'yicha faoliyat yondashuvida, modullarni o'quv rejasi va dasturlar tahlili natijasida, tuzishni taqozo etadi. Tizimli faoliyat yondashuvida, modullar bloki, mutaxassisning kasbiy faoliyat tahlili asosida, shakllantiriladi.

2. Tenglilik, teng huquqlilik tamoyili. Bu tamoyil, pedagog va o'quvchining o'zaro munosabati subhekt - subhekt xarakterligini belgilaydi.

Bu esa, modulli o'qitish texnologiyasini, shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar toifasiga taalluqliligini ko'rsatadi. Yahni modulli o'qitish texnologiyasi, shaxsning individual psixologik xususiyatlariga moslashgan bo'ladi.

3. Tizimli kvantlash tamoyili. Bu tamoyil axborotni siqib berish nazariyasi, muhandislik bilimlar kontseptsiyasi, didaktik birliklarni yiriklash nazariyalarining talablariga asoslanadi.

Shular bilan bir qatorda, bu tamoyil quyidagi psixologik-pedagogik qonuniyatlarni hisobga olishni taqozo etadi:

- katta xajmdagi o'quv material, qiyinchilik bilan va xohishsiz (istalmasdan) eslanadi;
- ma'lum tizimda qisqartirilgan xolda berilgan o'quv material, osonroq o'zlashtiriladi;
- o'quv materialidagi, tayanch qismlarning ajratilib ko'rsatilishi, eslab qolish faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu bilan bir qatorda o'quv materialining asosini ilmiylik va fundamentallik tashkil etish lozim.

Modulda tizimli kvantlash tamoyili, o'quv axborotning tegishli strukturasini tuzish yo'li bilan erishiladi.

Modul umumiy ko'rinishda quyidagi elementlardan iborat bo'lishi mumkin:

- **tarixiy** - bu muammo, teorema, masala, tushunchalarni tarixiga qisqacha sharx berish;
- **muammoli** - bu muammoni shakllantirish;
- **tizimli** - bu modul tarkibining tizimini namoyon etish;
- **faollashtirish** - bu yangi o'quv materialini o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan tayanch iboralar va xarakat usullarini ajratib ko'rsatish;
- **nazariy** - bu asosiy o'quv material bo'lib, unda - didaktik maqsadlar, muammoni ifodalash, gipoteza (faraz)ni asoslash, muammoni yechish yo'llari ochib ko'rsatiladi;
- **tajribaviy** - bu tajribaviy materialni (o'quv tajribasi, ishni va boshqalarni) bayon etish;
- **umumlashtirish** - bu muammo yechimining tasviri va modul mazmunini umumlashtirish;
- **qo'llanish** - bu harakatlarning yangi usullarini va o'rganilgan materialni amaliyotda ko'llash bo'yicha masalalar tizimini ishlab chiqish;
- **xatoliklar** - o'quvchining modul mazmunini o'rganishdagi o'zlashtirishda kuzatiladigan bir turdagi xatoliklarini ochib tashlash, ularning sababini aniqlash va tuzatish yo'llarini ko'rsatish;
- **ulanish** - o'tilgan modulni boshqa modullar bilan shu jumladan yondosh fanlar bilan bog'liqligini namoyon etish;
- **chuqurlashtirish** - iqtidorli o'quvchilar uchun yuqori murakkabli o'quv materialini takdim etish;
- **test-sinovlash** - modul mazmunini o'quvchilar tomonidan o'zlashtirish darajasini testlar yordamida nazorat qilish va baxolash.

O'quv materialining o'zlashtirilishiga mashg'ulotlar paytida modulning amaliy ahamiyati qay darajada ochib ko'rsatilganligi, modul mazmunini boshqa modullar bilan bog'liqligi, shu modulni o'rganishdagi o'quvchilarning bir xil xatoliklari tahlili muxim ahamiyatga ega.

4. Motivatsiya (qiziqishni uyg'otish) tamoyili. Bu tamoyilning mohiyati, o'quvchining o'quv-bilim olish faoliyatini rag'batlantirishdan iborat bo'ladi. Bu asos soluvchi qoidadir.

Modulning o'quv materialiga qiziqishni uyg'otish, bilim olishga rag'batlantirish, mashg'ulotlar paytida faol ijodiy fikrlashga dahvat etish, modulning tarixiy va muammoli elementlarining vazifalari hisoblanadi.

Modullilik tamoyili. Bu tamoyil o'qitishni individuallashtirishning asosi bo'lib xizmat qiladi.

Birinchidan, modulning dinamik strukturasi fan mazmunini uch xil ko'rinishda namoyon etish imkoniyatini beradi:

- to'la
- qisqartirilgan
- chuqurlashtirilgan.

O'qitishning u yeki bu turini tanlash o'quvchiga xavola qilinadi.

Ikkinchidan, modul mazmunini o'zlashtirishda, usul va shakllarning turliligida ham modullik namoen bo'ladi. Bu esa o'qitishning faollashtirilgan shakl va usullari (dialog, mustaqil o'qish, o'quv va imitatsion o'yinlar va hokazo), hamda muammoli ma'ruzalar, seminarlar, maslahatlar bo'lishi mumkin.

Uchinchidan, modullik, yangi materialni pog'onasimon o'zlashtirishda ta'minlanadi, yahni xar bir fan va xar bir modulda o'qitish oddiydan murakkabga qarab yo'nalgan bo'ladi.

To'rtinchidan, modulga kiruvchi o'quv elementlarining moslanuvchanligi tufayli, o'quv materialini muntazam ravishda yangilab turish imkoniyati ko'zda tutiladi.

6. Muammolilik tamoyili. Bu tamoyil muammoli vaziyatlar va mashg'ulotlarni amaliy yo'naltirilganligi tufayli, o'quv materialining o'zlashtirilish samaradorligini oshishiga imkon beradi.

Mashg'ulotlar paytida gipoteza (faraz) qo'yiladi, uning asoslanganligi ko'rsatiladi va bu muammoning yechimi beriladi. Ko'pchilik hollarda bizning

o'qituvchilar darslarda faqatgina dalillar keltiradilar (ular xatto yangi bo'lsa ham), ammo misol uchun AQSHda o'qituvchi masalani o'rganish uslubini, o'zi qo'ygan muammoni yechish yo'llarini, tajriba xususiyatini, uning natijalarini ko'rsatadi va tushuntiradi. Yahni u tadqiqotchi sifatida namoen bo'ladi.

Birinchi navbatda, ayniqsa, ana shu narsa o'quvchini qiziqtirib qo'yadi, unda ijodiy fikrlash va faollikni tug'diradi.

7. Kognitiv vizuallik (ko'z bilan kuzatiladigan) tamoyil. Bu tamoyil psixologik-pedagogik qonuniyatlardan kelib chiqadi, ularga ko'ra o'qitishdagi ko'rgazmalar, nafaqat surat vazifasini, shu bilan birga kognitiv vazifani bajargan taqdirdagina o'zlashtirish unumdorligini oshiradi.

Aynan, shuning uchun kognitiv grafika-sunhiy intellekt nazariyasining yangi muammoli sohasi bo'lib, murakkab obyektlar kompg'yuter suratchalari ko'rinishida tasvir etiladi. Modulning tarkibiy tuzilmasi bo'lib, rangli bajarilgan, kognitiv-grafik o'quv elementlari (rasmlar bloki) xizmat qiladi. SHuning uchun rasmlar, modulning asosiy bosh elementi hisoblanadilar. Bu esa:

Birinchidan, o'quvchining kurish va fazoviy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, yahni o'rganish jarayoniga miyaning tasviriy o'ng yarim shari boy imkoniyatlari qo'shiladi.

Ikkinchidan, o'quv materialini mazmunini o'zida zich joylashtirib ravshan ko'rsatuvchi surat (rasm), o'quvchida tizimli bilim shakllanishiga yordam beradi.

Uchinchidan rangli suratlar, o'quv informatsion materialni qabul qilinish va eslanish samarasini oshiradi, hamda o'quvchilarni estetik tarbiyalash vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Insonning bilim olishi, fikrlashning xuddi ikkita mexanizmdan foydalanganidek bo'ladi: ularning biri simvolli bo'lsa, ikkinchisi geometrik (algebraik) bo'ladi.

Kognitiv grafikaning asosiy vazifasi bilim olish jarayonining faollashtiruvchi fikrlashning simvolli va geometrik (algebraik) mexanizmlarni o'z ichiga olgan, bilim berishni uyg'unlashgan modellarini yaratishdan iboratdir.

Grafik (ko'zga ko'rinuvchi) axborot miyaning o'ng yarim shari imkoniyatlarini faollashtiradi, oliy ma'lumotli mutaxassis uchun zarur bo'lgan, tasviriyl fikrlash qobiliyatini, intuitsiyasini rivojlantiradi. Buyuk olim A.Eynshteyn aytganidek "intuitsiya xaqiqatda eng katta boylikdir. Mening ishonchim komilki, bizning fikrlashimiz asosan simvollar orqali shu bilan birga biz anglamasdan kechadi". Haqiqatda ilm-fan gepotezasiz (farazsiz), faraz zsa intuitsiyasiz mavjud bo'lmaydi.

Shu bilan birga, ko'rgazmali axborot og'zaki axborotdan ko'ra, ahamiyatliroq va unumliroqdir. Ko'rish mexanizmining axborotni qabul qilish qobiliyati, eshitishnikidan ko'ra ancha yuqoridir. Bu esa o'z navbatida, ko'rish tizimiga, inson qabul qilinadigan axborotning qariyb 90 foizini yetkazish imkoniyatini beradi. Undan tashqari ko'rgazmali axborot bir vaqtning o'zida beriladi. Shuning uchun axborotni qabul qilish va eslashga og'zaki axborotdan ko'ra kam vaqt talab etiladi. Ko'rgazmali axborot ishlatilganda, taassurot hosil bo'lishi og'zaki bayondan ko'ra o'rtacha 6-7 martaba tezroq kechadi. Insonning ko'rgazmali axborotdan ta'sirlanishi, og'zaki axborotdan ko'ra ancha yuqori bo'ladi. Ko'pchilik xollarda u oxirgisini o'tkazib yuboradi. Ko'rgazmali axborotni qayta takrorlash oson va aniqroqdir. Odamning ko'rgazmali axborotga ishonchi, og'zaki axborotdan ko'ra yuqori bo'ladi. Shuning uchun "yuz bor eshitgandan ko'ra, bir bor ko'rmoq afzalroqdir" deb bejiz aytilmagandir.

Shu bilan birga, ko'rgazmali axborotda, qabul qilish va eslash unumi, uni ko'rsatilishi orasidagi muddatni uzoqligiga bog'liq bo'lmaydi, og'zaki axborotning o'zlashtirilishi esa bunga bog'liq bo'ladi. O'rni kelib yana bir muhim tafsilotni qayd etish lozim: simvolli-ko'rgazmali axborotni qabul etish, o'qitish samarasini oshiradi. Shuning uchun o'quv-ilmiy adabiyotdan va kompg'yuter texnikasi vositasida olinadigan axborotni ko'paytirishga shart-sharoit yaratish zarur. Bu esa, o'qitishni individuallashtirish zarurligini ko'rsatadi.

8. Xatoliklarga tayanish tamoyili. Bu tamoyil o'qitish jarayonida doimiy ravishda xatoliklarni izlash uchun vaziyatlar yaratilishiga, o'quvchilarning ruhiy

faoliyati funktsional tizimi tarkibida oldindan payqash tuzilmasini shakllantirishga qaratilgan didaktik materiallar va vositalarni ishlab chiqishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Bu tamoyilning amalga oshirilishi, o'quvchida tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlanishiga yerdam beradi.

9. O'quv vaqtini tejash tamoyili. Bu tamoyil o'quvchilarda individual va mustaqil ishlash uchun o'quv vaqtining zaxirasini yaratishga yo'naltirilgan bo'ladi.

To'g'ri tashkil qilingan modulli o'qitish, o'qish vaqtini 30% va undan ortiq tejash imkoniyatini beradi. Bunga esa modulli o'qitishning barcha tamoyillarini to'la amalga oshirilganda, o'quv jarayoni kompg'yuterlashtirilganda, yondosh fanlarning o'quv dasturlari muvofiqlashtirilganda erishish mumkin.

O'tkazilgan nazariy izlanishlar natijasi bo'yicha quyidagi xulosalar qilindi:

- modulli o'qitishning xozirgi zamon nazariyasi va amaliyotida ikki xil yondashuvni ajratib ko'rsatish mumkin:
- fan bo'yicha faoliyat yondashuvi va tizimli faoliyat yondashuvi
- kasb-hunar kollejlarida ixtisoslikni egallab olish bilan bevosita bog'liq bo'lgan kasbiy fanlarni o'rgatishda tizimli faoliyat yondashuvi asosidagi modulli o'qitish texnologiyasini, o'quv rejada ko'rsatilgan boshqa kasbiy fanlarni o'rgatishida esa fan bo'yicha faoliyat yondashuvi asosidagi modulli o'qitish texnologiyasini qo'llash maqsadga muvofiqdir.

10. Texnologik tamoyili. Bu tamoyil o'quvchilar tomonidan o'qitishning ko'zlangan natijalarga erishish kafolatini ta'minlovchi, o'qitish va bilimni o'zlashtirish jarayonini, tizimli modulli yondashuv asosida ro'yobga chiqarishni anglatadi. Mazkur tamoyil quyidagilar orqali ta'minlanadi:

- maksimal aniqlashtirilgan o'quv maqsadlarni ishlab chiqish, ularni o'lchash va baholash mezonlarini tanlash;
- qo'yilgan o'quv maqsadlarga erishishiga yo'naltirilgan o'quv jarayonini ishlab chiqish va aniq tasvirlash;

- o'quv maqsadlarini, butun o'quv jarayonini o'qitish natijalariga kafolatli erishishga yo'naltirish;
- o'qitish natijalarini tezkor baholash va o'qitishga tuzatishlar kiritish;
- o'qitish natijalarini yakuniy baholash.

Texnologik tamoyili, o'qitishni qayta takrorlanadigan jarayonga aylanishiga imkon beradi.

Modulli o'qitish tizimida o'rgatuvchi sikllar soni, o'quv fanining modullari soniga teng bo'ladi.

O'quv maqsadlariga erishish uchun o'quv mehyoriy hujjatlarning uzviyligini ta'minlash tayanch sharoitlarini yaratish zarur. Ushbu maqsadlarda uzviylik tamoyilini qo'llash tavsiya etiladi.

11. Uzviylik tamoyili. Bu tamoyil o'quv maqsadlariga erishish imkoniyatini ta'minlash uchun o'quv rejasi va dasturlarni ishlab chiqishda tizimli yondashishin anglatadi. Bunda fanlarning maqsadlariga ko'ra, o'quv rejadagi soatlar mosligi ta'minlanadi.

Modulli o'qitish tamoyillari – modulli o'qitish texnologiyalarning nazariy asoslaridir.

1.2.Oliy ta'limda modulli texnologiyalardan foydalanishning shart-sharoitlari.

Umum kasbiy fanlarni modulli o'qitish jarayonining ma'lum jihatlariga tayyorgarlik ko'rish va moslashish muhim ma'lumotlarni inobatga olishi orqali amalga oshadi.

O'quvchilar holatiga baho berish, ta'lim sharoitlari bilan tanishish, umum kasbiy fanlarni yaxshi bilish - bularning hammasi nazariy va amaliy mashg'ulotga tegishli ilk shart-sharoitlar haqidagi ma'lumotlar sanaladi.

Nazariy va amaliy mashg'ulotlar shart-sharoitlarini quyidagi 3 ta tahlil yo'llari orqali aniqlash mumkin;

- o'quvchilar tahlili (o'quvchilarga qaratilgan);
- shart-sharoit tahlili (o'qitishni tashkil qilishga qaratilgan);
- kasbiy soha tahlili (o'quv materialiga qaratilgan).

O'quvchilar tahlilida o'qituvchi har bir o'quvchining bilimi, o'zlashtirish va o'rganish darajasi hamda qobiliyatlari to'g'risida ma'lumotga ega bo'ladi. Chunki o'quvchilar mashg'ulotlar paytida avvalo egallagan bilim va tajribalarini qo'llaydilar, shu bilan birga o'z ishonchlarini ham ifoda etadilar. Ularning o'qishga bo'lgan qobiliyati, shaxsiy holati, yoshi ta'lim holatiga muayyan ta'sir ko'rsatadi. Har bir inson va har bir o'quvchilar guruhi turlicha bo'lgani kabi ta'limda doimo yangi holatlar yuzaga keladi. Ular esa o'z navbatida o'qituvchi tomonidan o'zlashtirilmog'i lozimdir. O'quvchilarning qobiliyatlariga ko'ra tabaqalanishi natijasida o'qituvchi ayrim o'quvchilarga fanni individual o'zlashtirishni tavsiya qilishi mumkin.

Agar o'quvchilar tahlili o'tkazilmagan bo'lsa, u holda, ayniqsa, muammoli vaziyatlarda noto'g'ri baholashga olib kelishi mumkin.

Shart-sharoitlar tahlili modul tarkibiga kiritilgan nazariy va amaliy mashg'ulotlar uchun zarur bo'lgan sharoitlarni tashkil etish va yaratish borasidagi muhim ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Huquqiy shart-sharoitlar ta'lim jarayoniga taalluqli bo'lgan o'quv rejasi va modulli o'quv dasturi kabi hujjatlari bilan bog'liqdir.

Tashkiliy shart-sharoitlarga modul tarkibidagi nazariy va amaliy mashg'ulotlarni tashkil qilish borasidagi quyidagi zaruriy talablar qo'yiladi:

- o'qitish joyini tanlash (sinf xonasi va o'quv ustaxonalarning holatini tekshirish);
- dars, amaliy mashg'ulotlar vaqti va davom etishi;
- amaliy namoyishlarga tayyorgarlik ko'rish;

Texnik shart-sharoitlar. Ushbu shart-sharoitlar texnik moslamalar, yordamchi audiovizual vositalar, o'qitish va o'rganish vositalari (doska, flipchart, proektor, videomagnitafon)ning yaroqliligi, shuningdek, elektr toki, suv, havo bosimi va hokazolarning mavjudligi bilan uzviy bog'liqdir. Amaliy mashg'ulotlar o'qituvchisi zaruriy shart-sharoitlar mavjudligiga va texnik moslamalarni istalgan paytda ishlatish mumkinligiga ishonch hosil qilishi kerak.


Kasbiy soha tahlili. Agar o'qituvchi ilk marotaba dars o'tishga tayyorlanayotgan bo'lsa, u holda u o'zi dars bermoqchi bo'lgan kasbiy sohaning (masalan, pedagogika nazariyasi va amaliyoti) umumiy qamrovi va mazmuniy tarkibiy qismining elementlari borasida tasavvurga ega bo'lishi lozim.

Kasbiy soha tahlilini quyidagicha o'tkazish tavsiya etiladi: kasbiy soha maqsadlarini aniqlash; maqsadlar asosida ta'lim mazmunlar tanlash va amaliy ishlar mazmunini aniqlash (2 – rasm).

Maqsadli modullar mazmunini turli manbalardan:

- kasbiy soha bo'yicha kitoblar yoki o'quv adabiyotlaridan;
- texnikaviy adabiyotlar (ilmiy texnikaviy jurnallar, kasbiy maqolalar, patentlar va hokazolar)dan;

Aksariyat hollarda modulli o'qitishda kasbiy sohalar bo'yicha nazariy bilimlarni berish dalillar, tushunchalar, tamoyillar va usullarning qat'iy mantiqiy ketma-ketligi asosida ishlab chiqiladi.



2- rasm. Kasbiy soha tahlili.

Ko'pincha modul mavzuiy mazmunlarni aniqlash bilan bog'liq bo'lgan quyidagi bosqichlardan iborat bo'ladi:

1. Mavzu doirasidagi o'rgatiladigan dalillar.
2. Dalillar bilan bog'liq tushunchalar.
3. Dalillarni o'zaro bog'laydigan tamoyillar (funktsional aloqadorlik, qoidalar).
4. O'rgatiladigan usullar (ta'lim jarayonlari, amallar).

Aslida bu bosqichlar quyidagi o'sib boruvchi darajalarda tasvirlanadi.

Bilim – bu o'zlashtirilgan va xotirada saqlangan ma'lumotlar bo'lib, uni tez va aniq biror holatga mos ravishda ishlatish mumkin. Bilim quyidagi 3 ta turdan tuzilgan:

Dalil - bu o'qitish ob'ektini anglash va to'g'ri belgilash demakdir (masalan, bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi o'z yo'nalishini aniq va to'g'ri tanlay oladi).

Tushuncha - bu o'rganilgan dalilni tushuntirish, ta'riflash, shuningdek, tasnif qilishdir.

Tamoyil - umum qabul qilingan qoidadir. U bir yoki bir necha tushunchalar ko'rtasidagi munosabatni ifoda etadi.

Amaliy ta'lim qismiga taalluqli kasbiy sohani tahlil qilish ta'lim jarayonini tahlil qilish orqali amalga oshiriladi. Chunki bunday ta'lim qismlari kasbiy – mantiqiy emas, balki harakatlarga yo'nalgan tarzda kechadi.

Kasbiy sohani o'zlashtirish yuzasidan quyidagi xulosalarni berish mumkin:

- O'qituvchi o'quvchilarning ko'z o'ngida nafaqat kasbiy soha bo'yicha bilim va tajribalarga ega bo'lgan shaxs, balki boshqa sohalar bilimdoni sifatida namoyon bo'ladi. U bu bilimlarni o'quvchilarga etkazishda turli qiziqarli o'yin va usullardan foydalaniladi. Bu orqali uning o'quvchilar oldidagi obro' - e'tibori ortadi. Shuning uchun o'qituvchidan doimo o'z ustida ishlash va "har sohadan xabardor" bo'lishi talab etiladi.

O'qitish faoliyatining amaliy qismini o'quvchilar yaxshi o'zlashtirib olishi uchun ular amalga oshirishi kerak bo'lgan barcha mashqlarni o'qituvchi o'zi ham

yaxshi o'zlashtirgan bo'lishi kerak. Muammoli vaziyatlarni bilish va bu borada o'quvchilarga maslahat bera olish uchun u vaqt-vaqti bilan bajariladigan amaliy mashqlarni takrorlab turishi lozim. O'qituvchi nazariy bilimlarni olish uchun kasbiy soha bo'yicha yangi adabiyotlarga ega bo'lishi va o'zida his etishi kerak.

Buning uchun quyidagi usul tavsiya etiladi:

- iloji boricha o'z sohasi yoki mavzusiga tegishli bo'lgan barcha kitob, nashrlar, jurnallarning muhim betlaridan nusxa olish;
- boshqa hamkasblari tajribalarini o'rganish;
- muayyan mavzuga tegishli qisqa tushuntirishlar bilan berilgan manbalar majmuasini to'plash;

Kasbiy fanlarni modulli metodika asosida o'qitishda fanining o'qitish maqsadi va mazmunini belgilash muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, modullarning o'quv maqsadlari va mazmuni belgilanadi. O'quv maqsadlari modul yakunida ta'lim - tarbiya samarasi sifatida o'quvchi erishishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va shaxsiy fazilatlarini belgilaydi. Modulning o'quv maqsadlari tarmoq standartining har bir ixtisoslik bo'yicha kasbiy tavsifnomasida keltirilgan kasb-faoliyat turlari, kasbiy talablar, ko'nikma va bilimlardan kelib chiqqan holda ishlab chiqilishi lozim.

Modul asosida o'qitishda o'quv maqsadlarini qo'yish uslubining o'ziga xos xususiyatga egaligi shundan iboratki, o'quv maqsadlari o'quvchilar faoliyatida ifodalanadigan va aniq ko'rinadigan hamda o'lchanadigan natijalar orqali belgilanadi. O'quv maqsadlarini o'lchash, aniqlash orqali o'qitishni qayta takrorlash imkoniga ega bo'lish uchun har bir maqsadga erishish mezonini bo'lishi kerak, ya'ni ta'lim maqsadi shunday qo'yilishi kerakki, unga erishganlik haqida aniq xulosa chiqarish mumkin bo'lsin.

Modulning o'rganish maqsadlarini quyidagi 3 sohada tuzish mumkin⁶.

⁶Olimov Q.T., Halimov E.Z., Nigmatillaeva Z. Kasb-hunar ta'limida kasbiy fanlardan o'quv maqsadlari va mazmunlarini belgilash // Ilmiy tadqiqotlar axborotnomasi. -2003.-№2. B. 35-36.

Kognitiv o'rganish sohasi. Bu sohada modul bo'yicha qayta ishlangan axborotlarni, ya'ni dalil va tushunchalarni, tamoyil va usullarni tahlil va sintez qilish, baholash orqali qo'llashni o'z ichiga oladi.

Kognitiv o'rganish sohasi bilimlarni yodda saqlash, ko'nikma va qobiliyatlarni rivojlantirish, ko'zlangan o'rganish maqsadlarni o'zida mujassam etadi.

Psixomotorik o'rganish sohasi. Bu soha modulni o'rganish bo'yicha amaliy ish jarayonlar orqali hosil qilinadigan qobiliyatlar va ko'nikmalarni shakllantirishga mo'ljallangan. Masalan, tikuv mashinasini ishlatish va unda biron bir tikish jarayonini bajarish psixomotorik o'rganish sohasiga taalluqlidir. Demak, o'quvchi xohishi bilan boshqariladigan amallarni ifodalaydi.

Affektiv o'rganish sohasi. Ushbu soha munosabat, qadriyat, intizomga nisbatan qarash, mehnat xavfsizligi, mehnatga tayyorgarlik kabi emotsional holatlarni o'z ichiga oladi.

Nazariy darsda asosan kognitiv, amaliy darsda esa ko'proq psixomotorik soha qo'llaniladi va quyidagi kategoriyalarga bo'linadi:

Bilish - bu dalillar va tamoyillarni eslab qolish va qayta xotirlashni bildiradi. Bunda o'quvchi o'zlashtirgan bilimlarini eslashi va ularni aytib berishi mumkin.

Tushunish - o'rganilgan materialning mohiyatini tushunish qobiliyatining ko'rsatkichi bo'lib, tushunish asosida xulosalar chiqariladi, mavjud vaziyat tahlil qilinadi. Tushunish ko'rsatkichi sifatida izohlab berish, materialni qisqacha ifoda etish yoki keyingi hodisalar to'g'risida takliflar berish va hokazolar ishtirok etadi.

Metodlar, qoidalar, umumiy tushunchalarni qo'llash - bunga qoidalar, metodlar, tushunchalar, tamoyillar, nazariyalarni qo'llash kiradi. Bunda o'qitish natijalari o'quv materialini tushunishdan ko'ra yuqori saviyada o'zlashtirishni talab qiladi.

Tahlil qilish u butunni elementlarga bo'la olish, bu elementlarning gradatsiyasi va munosabatlarni o'rnatish, butunni tashkil qilish tamoyillarini bilishni o'z ichiga oladi. Bunda o'quv natijalari tushunish va qo'llashga nisbatan

o'zining yuqori intellektual saviyasi bilan xarakterlanadi, chunki u o'quv materialining mazmuni va uning ichki tuzilishini bilishni talab qiladi.

Sintez - yangi tuzilmalarni hosil qilish maqsadida berilgan elementlardan bir butunni yaratish. Natijalar orqali yangi sxema va strukturalarni yaratishga yo'naltirilgan ijodiy xarakterdagi faoliyatni ifodalaydi.


Modulni o'rganish maqsadi qanchalik aniq bo'lsa, unga erishilganlik darajasini baholash shunchalik oson bo'ladi. Modulning o'quv maqsadlarini aniqlashtira olsak, shunchalik ularga erishishga yaqinlashamiz. Amaliy mashg'ulotlar sohasida eng ko'p qo'llaniladigan ko'rsatkichlarga quyidagilar kiradi: shart-sharoitlar; sifat; miqdor; vaqt.

Miqdoran belgilanajak vazifani tasvirlash qiyin kechadi. Shu sababli o'rganish maqsadlarini ifodalashda ish-harakatni bildiruvchi va ish harakatni bildirmaydigan fe'llarni farqlashadi.

Ifodalangan o'rganish maqsadlari ham mavjud bo'ladi. Agar qo'llash bosqichida tavsirlangan, bunday o'qitish va o'rganish materiallari qo'llanilsa, unda eslatib o'tilgan o'rganish maqsadlariga erishiladi, deb hisoblasa bo'ladi.

O'quv-didaktik materiallar (yoki o'quv vositalari) deyilganda, o'qitilishi va o'rganilishi lozim bo'lgan bilimlarni beruvchi har qanday axborot tashuvchilar tushuniladi. Modulli metodika asosida o'qitishda o'quv-didaktik materiallar sifatida nazariy darslarda matnli vizual vositalardan, misol uchun o'quv kitoblari, kartoteka va prospektlardan, tarqatma materiallari, uslubiy qo'llanmalar, jadvallar, jihoz yoki asbobni ishlatish bo'yicha ko'rsatmalardan foydalanilish tavsiya etiladi (3– rasm).

Bunday o'quv va didaktik materiallarga qo'shimcha tarzda tasviriy-vizual vositalar (fotosuratlar, rasmlar, chizmalar, grafiklar) ham kiradi. Ular umumiy va keng qamrovli tasavvurlar hosil qilishni osonlashtiradi.




3– rasm. O'quv didaktik materiallar va vositalar

Ovoz va tovushli (audio), shuningdek, tasavvurlarni shakllantiradigan audio-vizual vositalar texnologik jarayonlar va funktsiyalar to'g'risidagi keng qamrovli real tasavvurlarni vujudga keltiradi.

Ish sohasiga tegishli asl narsalar, ya'ni mahsulotlar, jihozlar va asboblarni nazariy yoki amaliy mashg'ulot paytida didaktik funktsiyaga ega bo'lsa, u holda o'quv vositasi sifatida qo'llanilishi mumkin.

Ushbu vositalardan foydalanishda ularni muayyan maqsad, maxsus soha va usullarga mos holda tanlash muhim o'rin tutadi. Va nihoyat, amaliy mashg'ulotlar o'qituvchisi o'quv va ko'rgazmali vositalarni ishlata olishni va ulardan maqsadga muvofiq va oqilona tarzda foydalanishni bilishi kerak. Texnik vositalardan foydalanilayotganda yuzaga keladigan texnik muammolarni hal qila oladigan bo'lishi lozim.

Modul tarkibidagi nazariy va amaliy mashg'ulotlar uchun manbaviy material sifatida foydalanilgan vositalar quyidagicha farqlanadi:



Ko'pincha o'quv materiallari bir paytning o'zida didaktik materiallar sifatida, ya'ni o'qitish va o'rganish uchun ishlatiladi.

O'quv va didaktik materiallarni tayyorlash deganda, o'qituvchi tomonidan ularning tanlanishi va nazariy yoki amaliy mashg'ulotlar maqsadiga moslashtirilishi tushuniladi.

Agar tayyor vositalar yo'q bo'lsa, u holda ularni o'qituvchining o'zi tayyorlashi lozim:

O'quv va didaktik materiallarni tayyorlashda o'qituvchi chegaralangan vaqt va texnik imkoniyatlarini inobatga olgan holda e'tiborini quyidagilarga qaratishi lozim:

- ish varaqalari, tarqatma materiallar (bosilgan matnlar nusxalari), slaydlar, doska tasvirlari uchun eskizlar;

- yozma topshiriqlar, yozma va og'zaki testlar uchun so'rov qog'ozlari;

- baholash varaqasi, nazorat qog'ozi;

- ish rejalari, tashkiliy hujjatlar;

Nazariy darslarni o'tkazish paytida amaliy ko'rsatmalar quyidagi vositalar orqali ishlatiladi (4 – jadval);

(4 – жадвал);

Turi	Ishlatish uchun ko'rsatmalar
O'quv kitoblari	Kitobning muayyan betlarini belgilab, dars rejasiga kiritiladi.
Tarqatma materiallar	O'quv kitoblari yoki boshqa manbalardan saylanma nusxalar tayyorlanadi va ko'paytiriladi.
Doska tasvirlari	Mavzu va grafiklarga oid eskizlar tayyorlash.
Slaydlar	Nusxalash apparatida yoki kompyuterda tayyorlanadi.

Agar o'quv va didaktik materiallar mavjud bo'lsa, u holda ularning fan va modulning o'quv maqsadlari va mazmuniga mos kelish-kelmasligini tekshirishi kerak.

O'quv maqsadlariga erishish uchun quyidagi masalalarga e'tibor qaratish lozim:

Manbalarda muayyan kasbiy sohaga oid dalillar, tushunchalar, tamoyillar va usullarning taqdim etilganligiga;

Manbalarda "o'zlashtirilishi shart bo'lgan" va "o'zlashtirilishi mumkin bo'lgan" darajadagi bilimlar mavjudligiga;

Materiallarning bilim berish uchun yoki ko'nikmalar shakllantirilishiga mo'ljallanganligi;

O'qitish va o'rganish materiallardan didaktik foydalanishga mos holda materiallarning mazmuni va tuzilishiga ko'ra o'qituvchi va o'quvchi materiallariga bo'linishi kerak.

O'qituvchi qo'lidagi materiallar tarkibida quyidagi ma'lumotlar bo'lishi lozim:

- modulning o'quv maqsadlari va mazmuni haqidagi ma'lumotlar;
- tashkiliy masalalarga oid ma'lumotlar;
- amaliy mashg'ulotlar va mashqlar o'tkazilishida qanday didaktik-uslubiy tartib qo'llanilishi haqidagi ma'lumotlar;
- mashqlar ta'rifi;
- o'quvchilarning nazariy va amaliy mashg'ulotlar bo'yicha natijalarini tekshirish va baholashga oid ma'lumotlar;
- test va sinovlarga oid savol va javoblar;

O'qituvchilar uchun tayyorlangan materiallar nafaqat sohaga tegishli ma'lumotlarni, balki tashkiliy ishlar va uning natijalarni baholash haqidagi ma'lumotlarni, o'quvchilar uchun tayyorlangan materiallar faqat sohaga tegishli bilimlarni o'z ichiga olishi kerak.

Didaktik materiallar faqat o'quvchiga mo'ljallangan bo'lsa, o'qitish materiallaridan farq qiladi. Masalan, ular topshiriq varaqalari, savolnomalar, yo'naltiruvchi savollar va muayyan tarqatma materiallar bo'lishi mumkin.

O'quvchilarga tarqatiladigan materiallar tarkibida quyidagi ma'lumotlar bo'lishi lozim:

- matnlarda bo'sh qoldirilgan joylar (o'quvchilar tomonidan to'ldirilishi uchun);
- o'quvchining erkin fikrlashiga imkoniyat beruvchi savollar;
- auditoriyada ishlash uchun mo'ljallangan va ish bosqichlari ko'rsatilgan (tushunarli) chizmalar (eskizlar) va jadvallar;
- material, jihoz, asbob-uskunalar va yordamchi vositalar haqidagi ma'lumotlar.

Modul tarkibidagi nazariy mashg'ulotlarni quyidagi ketma-ketlikda o'tkazish tavsiya etiladi. Qiziqtirish (motivatsiya); ma'lumot berish; bilim berish; o'rganilgan bilimlardan foydalanib, topshiriqlar berish; tahlil va sintezlar; baholash.

Qiziqtirish (motivatsiya). Umum kasbiy fanlarni modulli o'qitishda nazariy mashg'ulotlarni qiziqarli, hattoki, darsga taalluqli bo'lmagan mavzularga oid suhbatlar bilan boshlash tavsiya qilinadi.

Iloji bo'lsa, mashg'ulot paytida darsga bog'liq bo'lmagan modul yuzasidan suhbatni boshlash kerak. Masalan suhbat mavzusi uchun qiziqarli kashfiyot, yangilik yoki hikoyat tanlanishi mumkin. Bularning barchasi birinchi dars mobaynida o'quvchilarning kayfiyatiga, shu sohaga qiziqishiga yoki keyingi darslarda o'quvchilar o'rganadigan o'quv materialiga e'tiborini qaratishga yordam beradi.

Modul tarkibidagi nazariy mashg'ulotning maqsadini bayon etish orqali motivatsiya va muayyan mavzuga kirish amalga oshiriladi. Intrinzli (ichki) va ekstrinzli (tashqi) motivatsiya uchun sabab va argumentlar topishga harakat qilish lozim. Motivatsiya qilish bilan o'qish va o'rganishga bo'lgan tayyorgarlik uchun shart-sharoit yaratiladi.

Ma'lumot va bilim berish. O'qituvchi o'quvchilarga kasbiy soha bo'yicha yangi materialni tushuntiradi, qisqa ma'ruzalar o'qiydi, munozaralar uyushtiradi, o'quv suhbatlari, o'yin - mashg'ulotlari va muammolarni hal qilish haqida suhbatlar o'tkazadi. Keyingi darslarda yangi modul birligini boshlashdan avval

o'tilgan modul birliklari mazmuni qisqacha, umumlashtirilgan holda qaytarilishi kerak.

O'quvchilarga modul birligiga mos tarqatma materiallar tarqatilishi lozim. Bu o'quv jarayonini engillashtiradi. Ularni modul birligiga monand ravishda birin-ketin tarqatish, ularni qo'yib chiqish uchun etarli vaqt berish va o'quvchilar e'tiborini axborotga qaratish uchun ovoz chiqarib o'qitish maqsadga muvofiq bo'ladi.

2-BOB. Oliy ta'limda umum kasbiy fanlarni o'qitishda modulli texnologiyalarni tashkil etish usul, vosita va shakllari

2.1. Pedagogik faoliyat yondashuvi asosidagi modulli o'qitish

texnologiyasining usul va shakllari.

Fan bo'yicha faoliyat yondashuvi ta'limning fanli tizimida modul metodologiyasini qo'llashni anglatadi. Bunday modulli o'qitish texnologiyasini oliy ta'lim tizimida akademik litseylarda va kasb-hunar kollejlarida, pedagog va muhandis-pedagoglar malakasini oshirish tizimlarida qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Fan bo'yicha faoliyat yondashuvi asosidagi modulli o'qitish texnologiyasida modul o'zida quyidagilarni mujassamlashtiradi:

- o'quv fanining fundamental tushunchalari - muayyan hodisa, yoki qonun yoki bo'lim, yoki yirik bir mavzu, yoki o'zaro bog'liq tushunchalar guruhi
- o'quv fanining bir yoki bir necha fundamental tushunchalarini o'rganishga (o'zlashtirishga) qaratilgan.

Odatda modul - 3-6 soatli ma'ruzaviy mashg'ulotlar va shu bilan bog'liq bo'lgan amaliy (seminar), laboratoriya mashg'ulotlaridan iborat bo'ladi.

Fanning tushuntiruv apparatini qatg'iy tizimli (ko'p qirrali) tahlili asosida, eng samarali modul tuziladi. Bu esa fundamental iboralar guruhini ajratish, materialni mantiqan va kompakt guruhlash imkoniyatini beradi. Modul - mustaqil tarkibiy birlik bo'lgani uchun, bahzi hollarda, alohida o'quvchilarga fanni to'laligicha emas, balki faqatgina bir qator modullarni tinglash imkoniyatini beradi. Bu esa iqtidorli o'quvchilarning individual va mustaqil ishlarini optimal rejalash imkoniyatini tug'diradi.

Modulli o'qitishda, o'quv dasturlarini to'la, qisqartirilgan va chuqurlashtirilgan tabaqalash orqali, o'qitishni tabaqalashtirish imkoniyati mavjud bo'ladi, yahni o'qitishni individuallashtirish mumkin bo'ladi.

Modulli o'qitishga o'tishda quyidagi maqsadlar ko'zlanadi:

- o'qitishning (fanlar orasida va fanning ichida) uzluksizligini ta'minlash;
- o'qitishni individuallashtirish;
- o'quv materialini mustaqil o'zlashtirish uchun yetarli sharoit yaratish;
- o'qitishni jadallashtirish;
- fanni samarali o'zlashtirishga erishish.

SHunday qilib, modulli o'qitishda o'quvchilarni o'z qobiliyatiga ko'ra bilim olishi uchun to'la zaruriy shart-sharoitlar yaratiladi.

O'qitishning modul tizimiga o'tish samaradorligi, quyidagi omillarga bog'liq bo'ladi:

- o'quv muassasasining moddiy-texnikaviy bazasi darajasi;
- professor-o'qituvchilar tarkibining malakaviy darajasi;
- o'quvchilarning tayyorgarlik darajasi;
- ko'zlangan natijalarni baholash;
- didaktik materiallarni ishlab chiqish;
- natijalarning tahlili va modullarni maqbullashtirish.

Modulli o'qitishga o'tishda quyidagilarni amalga oshirish ko'zda tutiladi:


- ishchi o'quv rejani chuqur tahlili asosida, o'zaro chambarchas bog'liq fanlar guruhi aniqlanadi, yahni butun o'quv rejasi alohida makromodullar to'plami sifatida qoraladi (4.2-rasm).

Ko'pchilik hollarda quyidagi uch turdagi makromodullar tuzilishi mumkin:

- a) gumanitar fanlarni o'z ichiga oladigan;
- b) iqtisodiy fanlarni o'z ichiga oladigan;
- v) umumta'lim, umumtexnik umumkasbiy va ixtisoslik fanlarni fanlarni o'z ichiga oladigan.

Har qaysi makromodulning mutaxassisni shakllantirishda, o'z maqsad va vazifasi bo'ladi. Ma'lum makromodulni o'rganish maqsadi, unga kiradigan fanlarning o'rganish maqsadlaridan kelib chiqadi.

Har qaysi makromodulning o'rganilish maqsadlari to'plami, Davlat ta'lim standartlarida aks ettirilgan, mutaxassis tayyorlashning bosh maqsadini tashkil etadi. Har qaysi makromodulning maqsadi aniq tuzilgan bo'lib, birinchi fani o'rganila boshlaganida, o'quvchilarga yetkazilishi lozim. Makromodulning har bir keyingi fani o'rganila boshlanganida, u fanning o'rganish maqsadlari talabalar e'tiboriga yetkaziladi:



4.2.-rasm. Fan bo'yicha faoliyat yondashuvi asosidagi modulli o'qitish texnologiyasining sxemasi

Har qaysi makromodul ichida, o'rganiladigan fanlarning maqbul ketma-ketligi va ularni o'rganish muddatlari o'rnatiladi. Yahni o'qitishning uzluksizligini ta'minlab, fanlarning o'rganilish muddatlarini va shu orqali makromodulni o'rganilish muddatlarini qisqartirishga erishish zarur. O'quv soatlari hajmi katta bo'lmagan (haftada 1-2, ayrim hollarda 3 soatli auditoriya mashg'ulotlari) fanlar, blok fanlar ro'yxatiga kiritilishi, maqsadga muvofiq bo'ladi va ular o'quv semestrning birinchi yeki ikkinchi yarmida o'tilishi mumkin.

Makromodullar vertikal yaqin o'zaro bog'liqliklarni hisobga olish asosida tuziladi, ammo ularni o'rganilish muddatlarini o'rnatishda makromodullar orasidagi gorizontal bog'lanishlar hisobga olinishi lozim.

o o'quv materialining takrorlanishini oldini olish maqsadida, makromodulga kiruvchi fanlarning, o'quv dasturlarini o'zaro bog'liqligi ta'minlanadi.

Fanning ishchi o'quv dasturi, alohida mavzularini modulda guruhlanishi hisobidan qaytadan ko'rib chiqiladi. Har qaysi modul uchun nazariy va amaliy ahamiyati ko'rsatilgan maqsadlar tuzilishi zarur.

Modul o'z ichiga 2-3 ma'ruza va shu ma'ruzalar bilan bog'liq amaliy darslar va laboratoriya ishlarini qamrab olishi mumkin. Har qaysi modul bo'yicha quyidagi materiallar tayyorlanadi:

- o'quvchilar bilimini nazorat qilish uchun testlar;
- individual ishlar uchun topshiriqlar;
- mustaqil ishlar uchun topshiriqlar;
- o'quv-uslubiy tarqatma materiallar;
- o'quv-ilmiy adabiyotlar ro'yxati;
- ishchi o'quv dastur.

Har bir modul test-sinovlari bilan tugallanishi lozim: joriy modul uchun bu o'tilgan materialni nazorati bo'lsa, keyingi modul uchun esa bu kirish (boshlang'ich) nazorati bo'ladi. Har qaysi modul uchun tarqatma va tasvirli

materiallar to'plami tuziladi va ular o'quvchiga mashg'ulotdan oldin beriladi. Modul, tavsiya qilinadigan ko'rgazma materiallar va adabiyotlar to'plami bilan ta'minlanadi, har bir materiallarni o'zlashtira borib, bir moduldan ikkinchi modulga o'tadi. Iqtidorli o'quvchilar boshqalarga bog'liq bo'lmasdan test sinovlaridan o'tishlari mumkin. Pedagogning vazifasi axborotchi-nazoratchidan boshlab, maslahatchi-muvofiqlashtiruvchigacha o'zgarishi mumkin. Oxirgisi, ya'ni pedagogning maslahatchi-muvofiqlashtiruvchi vazifasi, o'qitish o'rgatuvchi modullar asosida amalga oshirilganida, namoyon bo'ladi.

O'rgatuvchi modul - o'qitishning muayyan modul birligi bo'yicha mazmuni, o'quvchining o'quv harakatlarini boshqarish tizimi, muayyan mazmun bo'yicha bilimlar nazorati tizimi va uslubiy ishlanmalar mazmunidan iboratdir.

O'rgatuvchi modullarni ishlab chiqish juda murakkab jarayondir, u ko'p vaqt sarfini va juda ko'p sonli uslubiy tajribalarni umumlashtirishni talab etadi. Ammo ularni amaliyotda qo'llash, o'qitishni juda yuqori samaradorligini ta'minlaydi.

Modulli o'qitish, fanning asosiy masalalari bo'yicha umumlashtirilgan axborotlar beruvchi muammoli va yo'riqli ma'ruzalar o'qilishini taqozo etadi. Ma'ruzalar o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga qaratilmog'i lozim. Modulning amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari ma'ruzalar bilan birga tuziladi, ular ma'ruzalar mazmunini o'rganiladigan yangi material bilan to'ldiradi. O'quvchilar amaliy ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

Ma'ruzalar matnini tayyorlashda, strukturalash va tizimlash usullarini qo'llab, materiallari blok-sxema, rasmlar bloki ko'rinishida taqdim etilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda materialning o'zlashtirish samaradorligi oshadi, chunki:

- modulning pirovard maqsadi tushunib yetiladi;
- o'quv materialining elementlari orasidagi bog'lanishlar va o'tishlar yaqqol ko'rsatiladi;
- asosiy jihatlari ajratib ko'rsatiladi;

- o'quv materialining (modulning) butun hajmi, o'quvchining ko'z oldida yaqqol gavdalanadi.

Modul, tizimida o'quv materialining mazmunini strukturalashda eng avvalo axborotni «siqish» vazifasi ko'zlanadi. Bilimlarni to'la, foydalanish uchun qulay holda taqdim etilishiga harakat qilish lozim.

O'quv axboroti bir vaqtning o'zida to'rt xil - rasmlı, sonlı, simvolli va og'zaki ko'rinishda uzatilganida eng mustahkam o'zlashtirishga erishiladi.

Modulli ta'lim uslubiyotida, bu holat asos bo'lib xizmat qiladi. Har qaysi modul bo'yicha rasmlar bloklarida simvolli alomatlarni (savollar qo'yilishi tarzida) joylashtirish, savollarni rasm tarzida tasvir etish, formulalar, jadvallar, grafiklar va uslubiy ko'rsatmalarni taqdim etish, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Umuman olganda, rasmlar bloki, blok-sxemalar va boshqa kurgazmali materiallar talabalar uchun tarqatma material vazifasini o'tashi mumkin. SHu bilan birga har bir fan, jumladan, modul bo'yicha atamalarning izohli lug'ati tuzilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Modulli o'qitish samaradorligini oshirish maqsadida o'qitishning quyidagi usullaridan foydalanish tavsiya etiladi: aqliy hujum, muammoli munozara, evristik (savol-javobli) suhbat, o'quv ishbilarmonlik o'yinlari va hokazo.

Shunday qilib, modulli o'qitishga o'tish quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

- I bosqich: O'quv rejadagi fanlarni makromodullarga ajratish.
- II bosqich: O'qitish davri siqilganida, fanlarni o'rganishning eng maqbul ketma-ketligini o'rnatish.
- III bosqich: Makromodul fanlari o'quv dasturlarining o'zaro bog'liqligini ta'minlash.
- IV bosqich: Fanlarning modullarini shakllantirish.
- V bosqich: Modulning o'quv-ko'rgazmali materialini ishlab chiqish

VI bosqich: Modulli o'qitish tamoyillari asosida o'qitish texnologiyasini loyihalash.

VII bosqich: Bir vaqtning o'zida o'rganiladigan fanlarning maqbul sonini e'tiborga olib, mashg'ulotlar jadvalini tuzish.

O'qitishning modulli tizimi xususiyatlaridan biri o'quv jarayonini jadallashtirish hisoblanadi, ushbuni ikki aspektda talqin etish mumkin.

o'qitish jarayonida modulli o'qitish tamoyillari asosida o'quv axborotini «siqish»;

o'qitish davrini «siqish» yo'li bilan o'quv grafigini va uning asosida mashg'ulotlar jadvalini maqbullashtirish.

O'quv jarayonini samarali tashkil etish shakli bu mashg'ulotlarni haftalik modulli rejalashtirish va talabalar bilimini reyting baholash hisoblanadi. Ya'ni, bitta modul (2-3 ma'ruza va ularga tegishli amaliy va laboratoriya ishlari) bir haftaga rejalashtirilishi va u talabalar bilimining testlar yoki boshqa nazorat turi yordamida baholanishi bilan tugallanishi zarur.

O'qitishning modul tizimi mazmunidan uning quyidagi afzalliklari namoyon bo'ladi:

- fanlar, fanlar ichidagi modullar orasidagi o'qitish uzluksizligi ta'minlanishi;
- har bir modul ichida va ular orasida o'quv jarayoni barcha turlarining uslubiy jihatdan asoslangan muvofiqligi o'rnatilishi;
- fanning modulli tuzilish tarkibining moslanuvchanligi;
- o'quvchilar bilimni muntazam va samarali nazorat (har qaysi moduldan so'ng) qilinishi;
- o'quvchilarning zudlik bilan qobiliyatiga ko'ra, tabaqalanishi (dastlabki modullardan so'ng, o'qituvchi ayrim o'quvchilarga fanni individual o'zlashtirishni tavsiya etishi mumkin);

Informatsiyani «siqib» berish natijasida, o'qishni jadallashtirish, auditoriya soatlaridan samarali foydalanish va o'quv vaqti tarkibini ma'ruzaviy, amaliy (tajribaviy) mashg'ulotlar, individual va mustaqil ishlar uchun ajratilgan soatlarni - optimallashtirish. Buning natijasida, o'quvchi etarli bilimlarga ham, ko'nikmaga ham, malakaga ham ega bo'ladi.

Fan bo'yicha faoliyat yondashuvi asosidagi modulli o'qitish texnologiyasi har qaysi modul uchun ishlab chiqilgan pedagogik-texnologik xaritalar orqali ro'yobga chiqariladi (4.2-jadval).

Shunday qilib modulni o'qitishdan foydalanib yuqori malakali mutaxassisni tayyorlash, quyidagilar asosida ta'minlanadi:

- o'qitishning uzluksizligi (bunda fanlarni o'zlashtirish samaradorligi oshadi);
- o'qitishni jadallashtirish buning natijasida axborotning ko'p qismi, individual va mustaqil ishlash paytida, kompyuter tarmoqlari orqali o'zlashtiriladi;
- o'qishni individuallashtirish (o'quvchi o'z qobiliyatiga ko'ra bilim olish imkoniyatiga ega bo'ladi).

Mutaxassisni faoliyatini inobatga olgan holda muayyan o'quv fani bo'yicha tuzilgan modullarni ketma-ket o'zlashtirishni ta'minlash fan bo'yicha faoliyat yondashuvi asosidagi modulli o'qitish texnologiyasining mohiyatini tashkil etadi. Ushbu o'quv jarayonini maqbullashtirish o'qitishni moslashtirish va individuallashtirishga imkon beradi.

Tizimli faoliyat yondashuvi mutaxassisning faoliyatini o'rganishi, ushbu faoliyatini amalga oshirish uchun o'rganish lozim bo'lgan o'quv fanlarni ro'yxatini, o'quv materiallarni mazmunini aniqlanishi, modullarni tuzilishi va o'quv jarayonini mashqil etilishi bilan xarakterlanadi.

Modulli texnologiyaga tizimli faoliyat yondashuvi, eng avvalo kasb-hunar ta'limida va oliy ta'limda qo'llaniladi. Buning yorqin misoli bo'lib, YUNESKO ning xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan «Mehnat ko'nikmalari modullari (MKM) kontseptsiyasi» hisoblanadi.

Kontseptsiya, o'quv fanlariga bo'linmasdan, yaxlit o'qitishga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi.

Kontseptsianing afzalliklari bo'lib, modullar texnologiyalarining loyihalash jarayonining aniq tarkiblashtirish va modulli variantdagi o'quv-dasturiy hujjatlar shaklini to'la shakllanganligi hisoblanadi.

MKM - o'qitishning modulli dasturi, mutaxassis faoliyatining tahlili, uning mazmuni va tarkibini o'rganish asosida tuziladi va modulli bloklar hamda o'rgatuvchi modullari yig'indisidan iborat bo'ladi.

Mutaxassisning ishlab chiqarish faoliyati, qator ishlab chiqarish topshiriqlar bajarilishini o'z ichiga oladi (4.-rasm). Ular o'z navbatida belgilangan ketma-ketlikda bajariladigan ishlab chiqarish amallaridan (ishlar qadami) iborat bo'ladi. Ishlab chiqarish topshiriqi tarkibiga kiruvchi amallarni bajarish uchun, ishchi ma'lum darajadagi nazariy bilimlar va amaliy malakalarga ega bo'lishi kerak. Bunga ishlab chiqilgan o'rgatuvchi modullarni o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi orqali erishiladi. MKM dasturlar kasb-hunar ta'limi tizimining muayyan ixtisosligi bo'yicha ishlab chiqiladi. Modulli o'qitishning mazkur kontseptsiyasi kasb-hunar kollejlarda, ixtisoslikka o'rgatish uchun juda ham mos keladi. Bu esa eng avvalo «Kasbiy ta'lim» olayotgan talabalarga tizimli faoliyat yondashuvi asosidagi modulli o'qitish texnologiyasini o'zlashtirishni taqozo etadi.

Mazkur dasturlarni, oliy o'quv yurtlarining «Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish» ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalarni ixtisoslikka o'rgatishda ham qo'llash mumkin bo'ladi. Oliy o'quv yurtlarda ixtisoslikka o'rgatish uchun «Pedagogika nazariyasi va amaliyoti» fani o'quv rejalarga kiritilgan. Demak, mazkur fanni tizimli faoliyat yondashuvi asosidagi modulli o'qitish texnologiyasi bo'yicha talabalar tomonidan o'zlashtirishini tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir.

Yuqorida ifoda etilganlarni hisobga olib, tizimli faoliyat asosidagi modulli o'qitish texnologiyasining quyidagi asosiy xususiyatlarini qayd etish mumkin:

- o'qitish mazmuni, mutaxassis faoliyatining tizimli tahlili asosida, shakllantiriladi;
- modulli dastur tarkibi mutaxassis faoliyati tarkibiga mos shakllantiriladi. O'qitish dasturi alohida elementlardan, modullardan, o'rgatuvchi modullardan, modulli bloklardan iborat bo'ladi. Modul o'qitish dasturining tarkibiy qismi bo'lib, mutaxassis harakatining «boshlanishi va oxiri» aniq ko'rsatilgan tugallangan ish bo'lagidir;
- har qaysi modulni o'rganish «O'rgatuvchi modul» deb ataluvchi maxsus ishlangan uslubiy qo'llanmalar bo'yicha amalga oshiriladi. Unda bilim va malakalarni shakllantirish uchun zaruriy axborotlar, nazorat testlari keltiriladi;
- zaruriyat tug'ilganida, har qaysi o'quvchi uchun individual o'qitish dasturlari tuziladi. Ular ta'lim buyurtmasi talablari va boshlang'ich tayyorgarlik darajasi asosida tayyorlanadi;
- o'rgatuvchi modul o'quvchiga, mustaqil ravishda o'quv materialini o'zlashtirishga imkoniyat beradi. Pedagog va o'quvchining o'zaro munosabati teng huquqlilik va bilvosita asosida kechadi;

2.2. Pedagogik texnologiya asosida “Pedagogika nazariyasi va amaliyoti” fanini o’qitishning modulli loyihalash algoritmi.

O’quv fanini bir butunlik deb bilib, mazmun va hajmi jihatidan katga va o’rta modullarga ajratish hamda katga modullar maqsadlarini belgilash.

Muayyan katta modul tarkibidagi o’rta modullarning nomlari va maqsadlarini belgilash.

Hamma maqsadlar yakunida paydo bo’ladigan ko’nik- malarning fe’llar shaklidagi tizimini tuzib chiqish.

Muayyan o’rta modul* tarkibidagi kichik modullarning maqsadlarini aniqlash va ularga ajratilgan vaqtni belgilash.

Tayanch tushunchalar va nazorat savollarini aniqlash.

Baholash mezonlarini yaratish.

Muayyan o’rta modulda qo’llaniladigan dars turi, tipi hamda qo’llaniladigan pedagogik usul va uslublarni aniqlab, ishlatiladigan joylarini belgilash.

Pedagogik jarayonda foydalaniladigan axborot texnologiyalari, ko’rgazmali qurollar va boshqa didaktik materiallar zaxirasi ichidan, muayyai modulda foy- dapaniladiganlarini topib, qo’llanish joylarini aniqlash.

Muayyan o’rta modul mazmuni va pedagogik jarayoni- ning kechishini ifoda etuvchi modul matnini yozish.

Modul tarkibidagi nazariy mashg’ulotlarni quyidagi ketma-ketlikda o’tkazish tavsiya etiladi. Qiziqtirish (motivatsiya); ma'lumot berish; bilim berish; o’rganilgan bilimlardan foydalanib, topshiriqlar berish; tahlil va sintezlar; baholash.

Qiziqtirish (motivatsiya). Kasbiy fanlarni modulli o’qitishda nazariy mashg’ulotlarni qiziqarli, hattoki, darsga taalluqli bo’lmagan mavzularga oid suhbatlar bilan boshlash tavsiya qilinadi.

Iloji bo’lsa, mashg’ulot paytida darsga bog’liq bo’lgan modul yuzasidan suxbatni boshlashish kerak. Masalan suhbat mavzusi uchun qiziqarli kashfiyot, yangilik yoki hikoyat tanlanishi mumkin. Bularning barchasi birinchi dars

mobaynida o'quvchilarning kayfiyatiga, shu sohaga qiziqishiga yoki keyingi darslarda o'quvchilar o'rganadigan o'quv materialiga e'tiborini qaratishga yordam beradi.

Modul tarkibidagi nazariy mashg'ulotning maqsadini bayon etish orqali motivatsiya va muayyan mavzuga kirish amalga oshiriladi. Intrinzi (ichki) va ekstrinzi (tashqi) motivatsiya uchun sabab va argumentlar topishga harakat qilish lozim. Motivatsiya qilish bilan o'qish va o'rganishga bo'lgan tayyorgarlik uchun shart-sharoit yaratiladi.

Ma'lumot va bilim berish. O'qituvchi o'quvchilarga kasbiy soha bo'yicha yangi materialni tushuntiradi, qisqa ma'ruzalar o'qiydi, munozaralar uyushtiradi, o'quv suhbatlari, o'yin - mashg'ulotlari va muammolarni hal qilish haqida suhbatlar o'tkazadi. Keyingi darslarda yangi modul birligini boshlashdan avval o'tilgan modul birliklari mazmuni qisqacha, umumlashtirilgan holda qaytarilishi kerak.

O'quvchilarga modul birligiga mos tarqatma materiallar tarqatilishi lozim. Bu o'quv jarayonini engillashtiradi. Ularni modul birligiga monand ravishda birin-ketin tarqatish, ularni qo'yib chiqish uchun etarli vaqt berish va o'quvchilar e'tiborini axborotga qaratish uchun ovoz chiqarib o'qitish maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'quvchilarda tafakkur hosil qilish va qayta ishlash imkoniyatini yaratuvchi topshiriqlar o'zlashtirilgan bilimlarni faol ravishda qayta ishlab borish uchun zarurdir. Ular bilimlarni qabul qilishning nisbiy passiv fazasidan so'ng faol faza kelishi uchun imkoniyat yaratib beradi. Guruhlarda ishlash yoki mustaqil ravishda topshiriqlarni echish va natijalarni taqdim etish samarali o'qitish usullaridan biri hisoblanadi.

Tahlil va sintezlar. Modul birligi tahlili orqali alohida xususiyatlar muhokama etilishi mumkin.

Mazkur xususiyatlarni bir butun qilib sintezlash to'g'ri tasavvur hosil qilish va aloqadorlikni aniqlash imkonini beradi. Amaliyotga yaqinlashish va

o'zlashtirilgan bilimlarni kelajakda ishlatish uchun sintez orqali boshqa ilm-fan sohalari bilan bog'lash amalga oshiriladi.

Baholash. Har bir topshiriq yoki mashqdan keyin o'quvchilar o'zlari bajargan ishlarini baholashlari lozim. Yana bir imkoniyat mavjudki, bu - olingan natijalarni guruhlarda ochiq-oydin va samimiy muhokama qilishdir. Modul yakunida yakuniy suhbat uchun vaqt ajratilishi kerak. Bu esa o'z navbatida, o'quvchilar erishgan natijalar yuzasidan mulohaza yuritishlari uchun yaxshi imkoniyatdir.

Nazariy mashg'ulotlarni yuqoridagi ketma ketlikda o'tkazishni «Pedagogika nazariyasi va amaliyoti» fanining «Kadrlar tayyorlash milliy modeli. O'zbekiston respublikasida ta'lim sohasidagi islohatlar» moduli bo'yicha tahlil qilamiz.

Qiziqtirish (motivatsiya).

Ma'lumot va bilim berish.

O'zlashtirgan bilimlarni qayta ishlash uchun topshiriqlar berish. O'quvchilarga mavzu haqida to'liq ma'lumotlar berilganidan keyin, o'zlashtirilgan mavzuni takrorlash uchun topshiriqlar berilishi zarur.

Har qaysi o'quvchi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, “Ta'lim to'g'risidagi” Qonun to'g'risida olgan bilim va ma'lumotlarini qay tarzda qabul qilgan bo'lsa, shu tarzda tahlil qilinadi, chunki sintez orqali boshqa ilm-fan sohalari bilan bog'liqlik hosil qilinadi.

Baholash. Har bir topshiriqni vazifalar berilgandan keyin baholash kerak bo'ladi. Bunda o'qituvchi o'zi uchun maxsus baholash varaqi tutib, natijalarni baholab borishi shart, shundagina o'qituvchi ham, o'quvchi ham o'z maqsadiga erishdimi yoki yo'q ma'lum bo'ladi.

Pedagoik jarayonni loyihalash algoritmi. Loyiha tuzish bosqichlari va bajariladigan amallar⁷.

⁷ B.Ziyomhammedov, M.Tojiyev., “Pedagogik texnologiya – Zamonaviy o'zbek milliy modeli”, “Lider Press”, Toshkent .2009 yil.

1-jadval

1. “Pedagogika nazariyasi va amaliyoti” faninig katta moduli.

№	Katta modul nomi	Moduldan ko'zlangan maqsad
1.	Umumiy pedagogika.	O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasidagi islohotlar. Ta'lim to'grisidagi qonun va uning mohiyati, mazmuni. O'zbekiston Respublikasida kadrlar tayyorlashning milliy modeli va uning asosiy tarkibiy qismlari; Uzluksiz ta'lim tizimi va turlari. Pedagoglik (o'qituvchi-muallim, tarbiyachi-murabbiy) kasbi. pedagoglik kasbining paydo bo'lishi va ravnaq to'ishi. Sharq mutafakkirlari (Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, alisher Navoiy va boshqalar) va o'arb pedagoglari jamiyatda pedagoglik kasbining tutgan o'rni haqida. o'qituvchi-bakalavrning asosiy vazifalari, burch va mas'uliyatlari. Pedagogik mahoratni egallash yo'llari. Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Alisher Navoiy, Yan Amos Komenskiy, Lev Tolstoy, hamza o'akimzoda Niyoziy, Abdulla Avloniy kabi buyuk mutafakkirlarning ilmiy salohiyati va pedagogik madaniyati. Ularning pedagogika fani va maorif rivojiga qo'shgan hissasi. hozirgi sharoitda o'qituvchi-murabbiy shaxsiga qo'yilgan talablarning ortib borishi. O'zbekiston Respublikasi xalq o'qituvchisi-pedagogik mahorat ustasi.

2-jadval

2. “Pedagogika nazariyasi va amaliyoti” faninig o'rta moduli.

№	O'rta modul nomi	Moduldan ko'zlangan maqsad
1.	“Kadrlar tayyorlash milliy modeli”. O'zbekiston respublikasida ta'lim sohasidagi islohatlar.	O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining IX sessiyasida qabul qilingan “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», “Ta'lim to'g'risida”gi Qonunning qabul qilinishi munosabati bilan respublikamizda zamonaviy ta'lim tizimining qaror topganligini aytib, uning tarixiy ahamiyatini tushuntirish va ularda, bu bilimlarga ko'nikma hosil qildirish.

3-jadval

3. Birinchi kata modul tarkibida bo'lgan birinchi o'rta modul ichidagi kichik modullarning maqsadlari va ularga ajratilgan vaqt.

№	Moduldan ko'zlangan maqsad	Ajratilgan vaqt
1.	Talabalar bilan tanishib, «Pedagogika» tushunchasi va bu fanni o'rganish jarayonida amal qilinishi lozim bo'lgan qoidalarni talabalarga yozdirib, ularni yangi fan bilimlarini egallashga tayyorlash.	10 daqiqa
2.	Talabalarga, pedagogik kasbning shakllanish tarixini umumiy tarzda aytib, uning taraqqiyot bosqichlarini va ishlab chiqarish kuchlari bilan bog'liqligini aytib, chizmada ko'rsatish.	10 daqiqa
3	Talabalarga mustaqillikdan so'ng respublikamizda ta'lim soxasidagi islohatlar, ta'lim tarbiyani takomillashtirish yo'llari. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” uning mohiyati, “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun va uning mazmun – mohiyati haqida tushunchalar berish. O'zbekistonda etti bo'g'indan iborat – maktabgacha ta'lim, umum o'rta ta'lim, o'rta maxsus ta'lim, oliy ta'lim, oliy ta'limdan keyingi ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash va maktabdan tashqarigi ta'lim tizimining qabul qilinganligini va ularning har bir bosqichidagi tarmoqlarini, ularda ishtirok etadigan sub'ektlarni talabalarga birma-bir tushuntirib, ularda bu bilimlarga turg'un ko'nikma hosil qilish.	30 daqiqa
4.	Birinchi dars, talabalarda chuqur iz qoldirish munosabati bilan, yuqorida berilgan bilimlarni talabalar bir necha bor qaytarib aytib, chizmada ko'rsatib,	10 daqiqa

	ko'nikma darajasiga aylantirib olishlariga erishish.	
5.	Talabalar bilimini aniqlash uchun FSMU texnologiyasining fragmentidan foydalanib talabalar bilimini baholaymiz va dars yuzasidan uyga vazifa berib, uni bajarish yo'llari bilan ularni tanishtirish.	20 daqiqa

4-jadval

O'rta modul oldiga qo'yilgan umumiy maqsad. Talabalarga Pedagogika nazariyasi va amaliyoti fani, ijtimoiy fan ekanligi, uning jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni. Rivojlanish bosqichlari, vazifalari maqsadi predmeti haqidagi fikrlarini boyitish. Mavzuga doir tarqatilgan materiallarni talabalar tomonidan yakka va guruhli xolatini o'zlashtirib olishlari hamda suhbat munozara orqali tarqatma materiallardan matnlar qay darajada o'zlashtirilganligini nazorat qilish, maxsus vazifalarni amalga oshirish.	
--	--

5-jadval

4. Birinchi katta modul tarkibida bo'lgan birinchi o'rta modulning kichik modullari ichidagi tayanch tushunchalar va ular asosida tuzilgan nazorat savollari.

№	Tayanch tushunchalar	Nazorat savollari.
1.	Ta'lim sohasidagi isloxat– Mavjud moddiy texnika, o'quv uslubiy resurslarga tayanib ta'lim tizimi mazmuni va mohiyatini shaklini yangilash.	1. Ta'lim sohasidagi isloxlarning maqsadini ayting 2. Milliy dasturni amalga oshirish bosqichlarini sanang. 3. Ta'lim to'g'risidagi qonun necha bob va necha moddadan iborat.

2.	Shaxs - Kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti va ob'ekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi.	1.Kimni biz shaxs deb ayta olamiz? 2. Yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlar va yuqori darajadagi kasbiy malakaga ega bo'lish uchun shaxs qanday vazifalarni bajarishi shart?
3.	Davlat va jamiyat - Ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlar tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillari bo'lib, yuqori malakali raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash bo'yicha ta'lim muassasalarining faoliyatini uyg'unlashtiradi.	1.Davlat va jamiyat ta'lim muassasalarining yuqori malakali raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash yo'lidagi faoliyatini ham uyg'unlashtiradi qanday kafolat beradi ?
4.	Uzluksiz ta'lim - Malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlarini: maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta'limni, DTSni, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi.	1.Uzluksiz ta'lim turlarini sanang va tasniflab bering?
5.	Fan - Yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiquvchi.	1.Kadrlar tayyorlash milliy modelining tarkibiy qismlaridan biri fan qanday vazifalarni bajaradi.
6.	Ishlab chiqarish - Kadrlarga bo'lgan ehtiyojni, shuningdek, ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliya va moddiy - texnika jihatidan ta'minlash jarayonining qatnashchisi.	1. Ishlab chiqarishning talab-ehtiyojlari kadrlar tayyorlash tizimining yo'nalishini aytib bering?

6-jadval

5. Birinchi katta modul tarkibidagi birinchi o'rta modulning baholash uchun tayyorlangan FSMU texnologiyasi.

Savol	Nima uchun 1992 yilda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi qonun 1997 yil qayta qabul qilingan?
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
(M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	

Savol	Nima uchun Shaxs "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning ob'ekti va sub'ekti deb aytiladi?
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
(M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	

Savol	O'zbekistonning ta'lim tizimida qanday islohotlar olib borilmoqda?
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
(M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	

7-jadval

6. Birinchi katta modul tarkibidagi birinchi o'rta modulning dars turi va tipi hamda unda qo'llaniladigan pedagogik usul va uslublar.

№	Dars turi va tipi	Qo'llaniladigan usul va uslublar
1.	Aralash dars; yangi bilimlarni egallash;	Tushuntirish
2.	Aralash dars; yangi bilimlarni egallash;	Og'zaki bayon qilish; Illyustratsiya
3.	Aralash dars; yangi bilimlarni egallash;	Muammoli bayon; illyustratsiya
4.	Aralash dars; egallangan bilimlarni ko'nikmaga aylantirish.	Reproduktiv

8-jadval

7. Birinchi modul tarkibidagi birinchi o'rta modulning pedagogik jarayonida foydalaniladigan axborot texnologiyalar va didaktik materiallarning qo'llanish joylari.

№	Axborot texnologiyalari	Didaktik materiallar
1.	Mustaqil O'zbekistonimiz to'g'risidagi lavhalar.	
2.	O'zbekistonimiz erishgan ta'lim tizimidagi yutuqlari ifoda etuvchi kinolavhalar.	“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning mohiyatini ifoda etuvchi chizma.
3.	Proektor va kompyuter	

1-modul

Assalomu aleykum, aziz talabalar! O'tiringlar. (o'qituvchi o'zini tanishtiradi va talabalar bilan ham yo'qlama orqali tanishib oladi). O'zingizga bolalarni o'qitish kasbini tanlagan ekansizlar, bugundan boshlab, dars berish sirlari bilan sizni xabardor etuvchi «Pedagogika nazariyasi va amaliyoti» fanini o'qita boshlaymiz. Bu fanni sizlarga o'qish menga yuklatilgan. Mening ma'ruzalarimni diqqat bilan tinglab, darslarda faol qatnashsangiz va uyga berilgan topshiriqlarni qunt bilan bajarib borsangiz, albatta, yaxshi pedagog bo'lib etishasizlar.

Aytgan gaplarimga e'tirozlar bormi? E'tirozingiz bo'lsa ayting, biz erkin jamiyat, huquqiy va demokratik davlatda yashamoqdamiz. Menga qandaydir savollaringiz yoki e'tirozlaringiz bo'lsa ayting. Savollar, e'tirozlar yo'qmi? Bo'lmasa, darsimizning asosiy qismini o'tishni boshlashdan oldin, shu fanni o'rganish jarayonida, talabalar tomonidan amal qilinishi shart bo'lgan bir nechta qoidalar bilan sizlarni tanishtirib o'taman.

Konspekt daftaringizning birinchi betiga chiroyli qilib yozib qo'ying.

Birinchi navbatda, darsga kelganda, bilim olish ishtiyoqi bilan kelishingiz kerak. Dangasalik qilib, darsga qatnashib, vaqtim o'tsa bo'ldi, oxir-oqibatda diplomni qo'lga kiritarman, reyting baholarimni esa, amallab qo'ydirib olarman degan, fikrni miyangizdan chiqarib tashlang. Bu fikr o'ta zararli bo'lib, sizning shaxs sifatida shakllanishingizga katta to'siq bo'ladi.

Ikkinchi navbatda, bilim olish maqsadida kelgan ekansiz, fikringizni fan bilimlarini o'rganish uchun bir joyga jamlashni o'rganing, butun vujudingizni bilim olishga tayyorlang. Bu - bilim egallashning umumiy qoidasi hisoblanadi.

Uchinchi navbatda, meni diqqat bilan eshitib, so'zlarimning muhim joylarini ma'ruzalar daftaringizga qayd qilib boring. Dars jarayonida savollar paydo bo'lib qolsa, ularni daftaringizning bir chetiga yozib qo'ying va qulay sharoit topib, o'qituvchingizdan savollaringizga javob oling.

To'rtinchi navbatda, darsning ikkinchi mustahkamlovchi qismida faol qatnashib, dars jarayonida olgan bilimlaringizni ko'nikmangizga aylantiring. Eslatib o'taman, bilimning ko'nikmaga aylanishi uchun uni o'zingiz mustaqil ravishda yo aytib berishingiz, yoki shu ishni bajarib ko'rishingiz shart.

Va nihoyat, beshinchi navbatda, uyga berilgan vazifani shu kunning o'zidayoq bajaring. Ertaga bajararman demang, ertasiga bugun olgan bilimlaringiz esdan chi-qib ketadi. Bu qonuniyat, unga bo'ysunmay ilojimiz yo'q.

2-modul

Darsning asosiy qismini o'tishga kirishamiz.

1. "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"ning qabul qilinishi, ularning mohiyati.

2. Kadrlar tayyorlash milliy modeli haqida tushunchalar.

O'zbekiston zaminida ijtimoiy siyosiy davrda milliy o'zlikni anglash, milliy va umumbashariy qadriyatlarni o'zlashtirish orqali shaxs bilan jamiyat o'rtasida uyg'unlikni vujudga keltirish, ehtiyojlarning xususiylikdan umumiylikka o'tib berishi jarayonida voyaga etayotgan yoshlarning qobiliyatlari, ichki imkoniyatlarini rivojlantirish davr talabi ekanligini etirof etish lozimdir.

Insonshunoslik fanida inson - jamiyat, jamiyat – inson shaklida o'zaro ta'sirni taqozo etar ekan, birinchi va ikkinchisi ham to'g'ri, ham teskari aloqani o'rnatishi joiz. Abdulla Avloniy o'z davrida bashorat qilganidek: “Agar pedagogika insonni xar tomonlama tarbiyalashni hohlar ekan, unda insonni xar tomonlama o'rganishi zarurdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov: “Aql-zakovatli, yuksak ma'naviyatli kishilarni tarbiyalay olsakkina, oldimizga qo'ygan maqsadlarga erisha olamiz, yurtimizda farovonlik va taraqqiyot qaror topadi ”, - degan fikri ta'lim va maorifni yuksaltirish, milliy g'oyani ro'yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga etkazish davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri ekanligini ko'rsatadi.

Bu ulug'vor vaziflarni amalga oshirish uchun Respublika Oliy Majlisining 1997 yil 29 - avgustdagi IX sessiyasida, qonuniy zamin bo'lgan “Ta'lim to'g'risida”gi qonun, “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” qabul qilindi.

Ta'lim to'g'risidagi qonun maqsadi fuqarolarga ta'lim, tarbiya berish, kasb-hunar o'rgatishning huquqiy asoslarini belgilash hamda har kimning bilim olish mumkinligi kabi konstitutsiyaviy huquqini ta'minlashda iboratdir.

“Ta'lim to'g'risida”gi qonun 5 ta bo'lim, 34 moddadan iborat.

Qonunning 1-bo'limi “Umumiy qoidalar” deb nomlanadi. Unda ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy printsiplari, bilim olish, pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqlari, ta'lim muassasasining huquqiy maqomi, DTS, ta'lim berish tili kabi masalalar o'z ifodasini topgan.

“Ta'lim to'g'risida”gi qonunning 2-bo'limida ta'lim tizimi va turlari mohiyati yoritilgan.

Respublikamizdagi ta'lim tizimi: Davlat ta'lim standartiga muvofiq ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini; ta'lim tizimini rivojlanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tadqiqot ishlarini bajaruvchi ilmiy-pedagogik muassasalarni; ta'lim sohasidagi davlat boshqaruv organlari, shuningdek, ularga qarashli korxona, muassasa va tashkilotlarni qamrab oladi.

Mazkur qonunning 10-moddasida ta'lim quyidagi turlarda amalga oshirilishi ko'rsatiladi.



Qonunning 2-bo'limi, 11-17-moddalarida har bir ta'lim turining mohiyati qisqacha yoritib beriladi.

Qonunning uchinchi bo'limi ta'lim jarayoni qatnashchilarini ijtimoiy himoya qilishga bag'ishlangan bo'lib, unda ta'lim oluvchilarni va ta'lim muassasasi xodimlarini ijtimoiy himoya qilish, etim hamda jismoniy va ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitish masalalari qonuniy ifodasini topgan.

To'rtinchi bo'limida ta'lim tizimini boshqarishdagi Vazirlar mahkamasining, Ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlarining va mahalliy davlat hokimiyati organlarining vakolatlari ko'rsatilgan bo'lsa, beshinchi bo'limda yakuniy qoidalari ifodalab berilgan.

Talabalarda milliy va umuminsoniy qadriyatlar his-tuyg'ularini singdirib, ularni xar tomonlama barkamol, chuqur bilimga ega mutaxassis etib tayyorlashni taqozo etdi.

Milliy dasturning maqsad va vazifalari bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Har bir bosqichda muayyan vazifalarning hal etilishi nazarda tutiladi. Ushbu vazifalar quyidagilardan iboratdir:

Milliy dasturni ruyobga chiqarish bosqichlari.

1. 1997-2001 yillar bu bosqichda ta'lim qonuni asosida ta'lim tizimi va mazmuni qayta ko'rildi. DTS yaratildi.

2. 2001-2005 yillarni o'z ichiga olib milliy dasturni to'liq ro'yobga chiqarish rejalashtirildi va sifat bosqichi deb nomlandi.

3. 2005 va undan keyingi yillarni o'z ichiga qamrab olgan. Bu davrda ta'lim muassasalarining resurs, kadrlar va axborot bazalari yanada mustahkamlanishi, o'quv-tarbiya jarayoni yangi o'quv - uslubiy majmualar, ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan to'liq ta'minlanishi, milliy (elita) oliy ta'lim muassasalari qaror topishi ko'zda tutilgan.


3-модул.

KADRLAR TAYYORLASH MILLIY DASTURI – XAYOTIMIZ MEZONI

Milliy dastur maqsadi – ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasiuda, yuksak ma'naviy va ahloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdir.



KADRLAR TAYYORLASH MILLIY DASTURI – HAYOTIMIZ MEZONI



4-modul.

Bugungi darsda olingan bilimlaringizni aniqlash va reyting ballaringizni qo'yish maqsadida sizlarga "FSMU" texnologiyasidan foydalanib savollar tuzilgan varaqalarni tarqataman, sizlar esa uni 3 daqiqa ichida echib menga qaytarasizlar men ulardagi javoblarni tezlik bilan tekshirib, reyting ballaringizni qo'yib chiqaman.

Hurmatli o'quvchilar, topshiriqni bajarayotganda bir-biringizdan ko'chirmang va maslahatlashmang. Har kim o'zi bajarsin, chunki har kim hayotda o'zi olgan bilimlari asosida yashaydi. Birovning bilimi, ongi bilan hayotda yashab bo'lmaydi. Vaqt tugadi, varaqalarni qaytarib beringlar.

5-modul.

Berilgan savollarga bergan javoblaringizni men tekshirib chiqdim. Ba'zi talabalar darsda diqqat qilib o'tirmaganlari tufayli ayrim savollarga noto'g'ri javob berganlar. Ammo ko'pchilik talabalar savollarga to'g'ri javob berganlar. Endi siz olgan bilimlaringizni yanada chuqurlashtirish va kengaytirish maqsadida men darsni boshida sizlarga yozdirgan asosiy adabiyotlar va qo'shimcha adabiyotlarni o'qib, konspekt qilib kelasizlar. Shunda vazifani noto'g'ri bajargan talabalar ham o'z bilimlarini kengaytiradilar.

6-modul.

Qadrli talabalar mana bugun biz siz bilan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", "Ta'lim to'g'risidagi" Qonun, O'zbekiston Respublikasida olib orilayotgan ta'lim sohasidagi islohotlar haqida bilimga ega bo'ldingiz. Men darsda faol ishtirok qilgan talabalarga rahmat deb aytaman. Uyga vazifani men aytib o'tdim.

Menga savollar bormi? Uyga vazifa tushunarlimi? Savollar bo'lmasa, diqqat e'tiboringiz uchun rahmat! Darsimiz tamom. Xayr sog' bo'lingizlar!

Umumiy xulosa va tavsiyalar.

Xulosa qilib shuni aytib o'tish joizki, Respublikamizda amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlari, islohotlar, mamlakatimiz iqtisodiy qudratining oshib borishi jamiyat ijtimoiy sohasining markaziy halqasi bo'lgan ta'lim-tarbiya tizimida ham tub islohatlarga olib keldi. Yoshlar ta'lim-tarbiyasini takomillashtirish, ularga berilayotgan bilim mazmunini boyitish va uzluksizligini ta'minlab berish uchun yangi hujjatlar qabul qilinmoqda, dars berishning ilg'or pedagogik usullari yaratilmoqda.

Respublika hukumatining ta'limni rivojlantirish, yosh avlodga jahon andozalariga mos bilimlar berish, ularni ona-Vatanga, milliy istiqlol g'oyasiga sadoqat ruhida tarbiyalash borasidagi sa'i-harakatlari tufayli ta'lim-tarbiya ishining bugungi qiyofasi tubdan o'zgarmoqda. U mustaqillikka erishib, taraqqiyot yo'lidan dalil borayotgan xalqimiz ruhini, g'oya va intilishlarini o'zidan aks ettirgan ta'lim tizimiga aylanmoqda. Mamlakatimizda ta'limning hali jahon amaliyotida kam uchraydigan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilindi.

Jamiyatimiz bir ijtimoiy tuzumdan boshqa turdagi ijtimoiy tuzumga o'tishi munosabati bilan xo'jalik yuritish va ijtimoiy hayotning boshqa jihatlarini markazdan turib rejalashtirish hamda nazorat qilib borish tamoyillaridan, bozor munosabatlariga asoslangan xo'jalik yuritishga, ijtimoiy hayotni esa xalq an'analariidan kelib chiqib shakllantirish tamoyillariga o'tmoqdamiz. Yoshlar dunyoqarashini, ularning fazilatlarini tarkib toptirish barobarida, ularni shaxs sifatida shakllantirish vazifasi ijtimoiy fanlariga yuklatilgan ekan, yaqin o'tmishdagi aholi dunyoqarashi shu kunda taraqqiy etib borayotgan O'zbekiston jamiyatining maqsadlariga zid kelib qolganligini ko'ramiz. Bu hol ijtimoiy fanlardagi, shu jumladan, pedagogikadagi, bir qator tushunchalar va ta'lim berish usullarining paydo bo'lishiga olib keldi.

Ushbu bitiruv malakaviy ishimizning mavzusi asosida olib borilgan amaliy tajriba ishlari natijalariga tayangan holda quyidagi xulosalarga keldik:

1. Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish ta'lim yo'nalishi talabalarining "Pedagogika nazariyasi va amaliyoti" fanini o'qitishda modulli

texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-nazariy jihatlarini o'rganib tahlil qilib chiqdik.

2. Oliy ta'limda modulli texnologiyalardan foydalanishning shart-sharoitlari amaldagi holatini o'rgandik.

3. "Pedagogika nazariyasi va amaliyoti" fanini o'qitishda modulli texnologiyalarning loyihalash usullarini amalda qo'llab ko'rdik.

Olib borgan malakaviy ishmizning natijasi va xulosalarimiz asosida quyidagi tavsiyalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisobladik.

1. Oliy ta'lim muassasasi o'qituvchilari har bir darsini modulli texnologiyalardan foydalanib loyihalashtirsa ta'limning sifati va samaradorligi oshadi.

2. "Pedagogika nazariyasi va amaliyoti" fanini o'qitishda ma'ruza, seminar, tajriba darslarini modulli algoritmini tuzib olsa, talablarlarning darsga bo'lgan qiziqishi ortadi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Karimov I.A “O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” T. ”O'zbekiston” nashriyoti, 2011 yil.
2. Karimov I.A “Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch” T. ”Ma'naviyat” nashriyoti 2008 yil.
3. Karimov I.A “Barkamol avlod –O'zbekiston taraqqiyotining poydevori” T. ”Sharq” nashriyoti. 1997 yil.
4. Karimov I.A “Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati” T. ”Sharq” nashriyoti, 1993 yil
5. Karimov I.A “Barkamol avlod orzusi” T.”Sharq” nashriyoti, 1999 yil.
- 6.Karimov I,A “O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” T. “O'zbekiston” nashriyoti, 1997 yil.
7. Karimov I.A “O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li” T. ”O'zbekiston” nashriyoti, 1992yil.
8. Avliyoqulov N.X. Kasbiy fanlarni modulli o'qitish texnologiyasi. Toshkent: «Yangi asr avlodi». 2004. – 106 b.
9. Avliyoqulov N.X., Musaeva N.N. “Kasb-hunar kollejlarda kasbiy fanlarning modulli o'qitish texnologiyalari”., -Toshkent. 2003 yil
10. Ashurova S.Y. Maxsus fanlarni modulli o'qitish //Kasb-hunar ta'limi.T.: 2004. №5.- b.
- 11.Bespalko V.P. Pedagogika i progressivnie texnologii obucheniya. M.: ITPIMIO, 1995. –169 b.
12. Golish L, Fayzullaeva D. Kasb-hunar kollejlarda modulli dastur asosida ta'lim berish // Kasb-hunar ta'limi №4.2002.- 24b.
13. Zimin V.N.Modulniy podxod k professionalnomu obrazovaniyu. //. Professionalnoe obrazovanie. №10.M.: - 2001- 14s
14. Ziyomhammadov B.,Abdullaeva Sh., «Ilg'or pedagogik texnologiyalari». T.: Abu Ali Ibn Sino, 2001. – 80 b.

15. Ibatulina L.F. Texnologiya modulnogo obucheniya //Professionalnoe obrazovanie. M.: №4 . 2002.-11s.
- 16.Lerner I.Ya. Vnimanie o texnologiya obucheniya. //Sov.Pedagogika. 1990.№3. S-139.
17. M. I., Ibragimov G.I. Pedagogicheskie texnologii razvitiya mishleniya uchashixsya. Kazan: 1993.-88 s
- 18.Modulnaya sistema podgotovki personala. Informatsionniy byulleten. M.: Mejdunarodniy sentr razvitiya modulnoy sistemi obucheniya. 1997. – 10 s.25.
Monaxov V.M. Aksiomaticheskiy podxod k proektirovan. Ped.texnologii. – Pedagogika. 1997.№6. – S. 26.
- 19.Nuriddinov B.S. Kasb-ta'limi o'qituvchilari malakasini oshirishda faol o'qitish metodlaridan foydalanish. Avtor. Kand. diss. – T., 2002 y, 16 b.
- 20.Olimov Q.T., Avliyoqulov N., Rustamov R. M. Kasbiy fanlarni o'qitishning modul tizimi // Kasb- hunar ta'limi. - 2003 yil. –№2. –18 b.
- 21.Selevko G.K. Sovremennie obrazovatelnie texnologii.-M.: Narodnoe obrazovanie, 1998. – 256 b.
22. Sayidaxmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent.: Moliya. 2003. – 168 b.
- 23 . Saydaxmedov N., Ochilov A. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi. T.: 1999, 7-8-bet.
24. Farberman B.L. Peredovue pedagogicheskie texnologii.-Tashkent: Fan, 2000. - 130 b. 134.
25. Xodiev B.Yu., Gimranova O.B. Sovremennie obrazovatelnie texnologii. Toshkent. 2007. 319s.
26. Choriev Z. Pedagogik faoliyat mazmunini o'zgartiruvchi omil. //Kasb-hunar ta'limi. №4-2002- 21 b.

Internet saytlar:

1. www.Pedagog.uz
2. www.Ziyonet.uz

3. www.tdpu.uz
4. www.edu.uz
5. tdpu-INTERANET.ped

M U N D A R I J A

KIRISH.....	3-6-bet
1-BOB. Oliy ta’limda umum kasbiy fanlarni o’qitishda modulli texnologiyalarning nazariy asoslari.....	7-21-bet
1.1. Modulli o’qitish texnologiyalarining mazmun va mohiyati.....	7-21-bet
1.2. Oliy ta’limda modulli texnologiyalardan foydalanishning shart-sharoitlari.....	22-34-bet
2-BOB. Oliy ta’limda umum kasbiy fanlarni o’qitishda modulli texnologiyalarni tashkil etish usul, vosita va shakllari.....	35-46-bet
2.1. Pedagogik faoliyat yondashuvi asosida o’qitishning modulli texnologiyasining usul va shakllari.....	35-46-bet
2.2 Pedagogik texnologiya asosida “Pedagogika nazariyasi va amaliyoti” fanini o’qitishning modulli loyihalash algoritmi.....	47-63-bet
Umumiy xulosa va tavsiyalar.....	64-65-bet
Foydalanilgan adabiyotlar.....	66-68-bet
Ilovalar	